

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»

KAFEDRASI

Boboqulova Dilnoza Azamatovnaning

*O`rta maxsus kasb-hunar kollejlarda o`quvchilarga ayol portretini
bosqichlarda chizishga o`rgatish metodikasi* mavzusidagi

5140700- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi *M.X.Nurmatov*

Navoiy 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISHI TARIXI.....

- 1.1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.....
- 1.2. Mustaqillik yillarida tasviriy san'atning o'qitilishi.....

II-BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI.....

- 2.1. Kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi
- 2.2. O`rta maxsus kasb-hunar kollejlarda portret janrini o`rgatish metodikasi.
- 2.3 Tasviriy san'at darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi 1997-yili O`zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirish bo`yicha “Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o`qitilishiga alohida e`tibor berilgan bo`lib, xususan uning “Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta`limning faoliyat ko`rsatish prinsiplaridan biri ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish¹ lozimligini qayd etadi.

Tasviriy san`at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o`rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san`atning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo`layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko`rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san`at, tabiat hodisalari va kishilarning o`zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaganlar.

Istiqlol tufayli o`zining mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko`proq estetik va badiiy tarbiyaga bo`lgan ehtiyoj tamoyillariga asoslanmoqda. Ta`lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g`oyalarida o`z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o`rta ta`lim maktablarida bo`lajak boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarini tasviriy san`atdan nazariy va amaliy mashg`ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish hamda fanni o`qitishni modernizatsiyalash o`zining ko`p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta`lim tizimi oldiga bir qator vazifalarni ko`ndalang qilib quyadi.

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 44-bet.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir»

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos “milliy modelni» hayotga tadbiiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali, o'quvchilarning iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: “Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»², – deb alohida ta'kidlaydi.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va

² I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 7-bet.

san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Prezidentimiz I. A. Karimovning "... biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va ma'daniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor»³ – deb aytgan fikrlari o'rinli.

Yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san'at fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda tasviriy san'at asarlari kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotlariga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko'rib esa ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko'rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo'lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, ularning kiyimlari, urf-odatlar bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini

³ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008, 52-bet

shakllantirishgagina eras, balki go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'i nazar, go'zallik va nafislikni ko'ra olish va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi. Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibliigi, fazodagi holati, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlari va tashqi ko'rinish jihatdan klassifikasiyalashni anglaymiz. So'nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarning 90% idan ortiqrog'ini ko'z bilan ko'rish orqali oladilar. Bu kishilar hayotida ko'zning ahamiyati beqiyos katta ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'z faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabda ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at predmeti ko'p imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy san'atning kishilar hayotidagi o'rnini yanada oydinlashadi.

Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi

tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Tasviriy san'at va badiiy mehnat ikkita predmetni o'zida mujassamlashtirganligi sababli har biri haqida alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rgatishni, uning hayotda kishilarga qanday foyda keltirishini atroflicha ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi suhbat jarayonida rasm chizishni bilish har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib beradi. Buni u hayotdan olingan misollar, madaniyat arboblarning fikrlari asosida bayon qiladi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, e'tiborsiz, ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadalar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobitiyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi.

Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi –

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda « O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tasviriy san'at mazmuni.». Tasviriy san'atni yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullari haqida umumiy tushuncha berishni,

– « Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tasviriy sanʼat mazmuni.». Tasviriy sanʼat faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullarini bayon etishni

–« Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tasviriy sanʼat mazmuni ». Tasviriy sanʼat faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullariga doir bir nechta misollar keltirishni oʻz oldimga maqsad qilib qoʻyaman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

– «Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tasviriy sanʼat mazmuni». Tasviriy sanʼat faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlashga oʻrgatishda talaba-oʻquvchilar uchun engil usullardan foydalanib oʻtish orqali bilim berish.

– «Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tasviriy sanʼat mazmuni». Tasviriy sanʼat faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlashga oʻrgatishda innovatsion texnologiya usullaridan oʻrinli foydalana olish orqali malakalarini rivojlantirish

Malakaviy bitiruv ishituzilishi:

– kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami 64 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

– Talaba-oʻquvchilarning Tasviriy sanʼat darslarida « Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tasviriy sanʼat mazmuni ». Tasviriy sanʼat faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlashni yaxshi oʻzlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab, kasb-hunar kolleji, va litseylarda o`qitiladigan “Tasviriy san`at» o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab, kasb-hunar kolleji, va litsey o`quvchilarida Tasviriy san`at darslarida « O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limida tasviriy san`at mazmuni ». Tasviriy san`at faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlashni o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi.

Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:

– analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik ko`zatuv, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISHI TARIXI.

Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki haqida ma'lumotlar yetarli bo'lmasada, biroq qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi 3- asrlarga doir materiallar ham mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. 1-rasm. SHuni alohida qayd qilish lozimki, bunday san'at asarlari qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar ularni maxsus maktablarsiz yaratib bo'lmaydi. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar desak yanglishmagan bo'lamiz. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi.

Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chihayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan.

Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan “ o ” harfini o'rgatish uchun oyoq rasmi, “ q ” harfini o'rgatish uchun qo'l rasmi chizdirilgan.

Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan.

Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki yog'och bilan kaltaklangan.

Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor-yo'qligi ma'lum bo'lmasa-da, ayrim rasm chizish qoidalari qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lchov, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan.. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan olti ming yil avval mavjud bo'lgan"

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuzga ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'l bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Eramizdan avvalgi 432 yilda YUnon haykaltaroshi Poliklet kishi tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida "Dorifor" haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'lmagan maktablarda o'rgatildi.

Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi. 4-rasm.

Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida Sikion maktabi katta rol o'ynagan. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Bu maktabni bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo'lgan. Pamfil rasm chizishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: "Uning sa'yi harakati

bilan avval Sikionda, so'ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi."

Uyg'onish davrida Italiya tasviriy san'ati va uni o'qitish metodi katta rol o'ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta'lim beradigan o'quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san'at o'rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o'rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko'ra naturaga qarab rasm ishlash o'qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san'atni o'qitish metodikasi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining "Kniga o' jivopisi" nomli ishida rassomchilikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaradi. U ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uyg'onish davrining nemis rassomlaridan A.Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi. Uning fikricha har qanday buyum, qism va yuzalar asosida geometrik shakllar yotadi. SHuning uchun chizishda u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik shakllar chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, Chistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. hozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q.

Uyg'onish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, ular tasviriy san'atda anatomiya, perspektiva, yorug'soyaning benihoya katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada san'at asarlari o'zining yuksak badiiyligi va realistikligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan bo'ldi. 7-rasm.

Shunga qaramasdan tasviriy san'atni o'qitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi. Bu muammolar asosan XVI asrdan boshlab yechila boshlagan. Bir qator

akademiyalar tashkil etilishi ishni yengillashtiradi. Bunday akademiyalar Florensiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtlarda bunday maktablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, endi davlat va jamoalar ham bunga o'z ulushlarini qo'shaboshlagan edilar. Bu o'quv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya ko'proq iz qoldirdi. Ular yaratgan o'qitish tizimida o'quv materiallarini tez o'zlashtirish, o'quvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarni hosil qilish asosiy o'rinni egalladi.

Bu rassom–muallimlar o'zlaridan avval o'tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, talabalarni shu asosda o'qitishga harakat qildilar. Ular o'z faoliyatlarida yorug'soya, kolorit, rang, konstruksiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e'tibor berdilar. Ayrim tarixiy va san'atshunoslik ma'lumotlariga qaraganda Dyurer tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo'llanmalar yaratilgan. Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos.

Akademik tizimga ko'ra jiddiy ilmiy bilimlarsiz rasm ishlashni o'rganib bo'lmaydi. Bolalar rasm chizish orqali borliqni bilib boradilar. Bu sifat har bir shaxs uchun, u qaysi sohaning mutaxassisi ekanligidan qat'iy nazar zarur deb hisoblandi.

Keyinchalik Balon akademiyasi ta'sirida Parijda, Venada, Berlinda, Madridda, Peterburgda, Londonda ana shunday akademiyalar ochildi.

Tasviriy san'atni hamma umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chek pedagogi YA.A.Komenskiy tomonidan uning "Buyuk didaktika" asarida rivojlantirildi.

Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining "Emil ili vospitaniye" nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy

rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar.

Evropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta'lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.SHmidt va P. SHmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo'shdilar.

Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.SHmidt va I.SHmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotssi, I.SHmidt va P.SHmidt, F.Dyupyuilar asoslashga harakat qildilar.

Lekin, XIX asrning ikkinchi yarmidan geometrik metod yevropaning ko'p mamlakatlarida qo'llanila boshlandi. SHunday qilib, XIX asr o'rtalariga kelib, yevropada rasm chizish fan tarzida umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san'atshunoslar, pedagog, psixologlar, vrachlar shug'ullana boshladilar. Rasm chizishni o'qitish metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko'rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro'y bermadi.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san'atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyuilar faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta'limni tezlashtirib bo'lmaydi. CHunki, har bir bola yoshiga mos ravishda avvaldan belgilab qo'yilgan bosqichlarni bosib o'tadi. Bu bosqichni o'tamasdan, ikkinchisini o'zlashtirib bo'lmaydi yoki ularning ijodiga

aralashib, ularning fikrlari, his-tuyg'ularini o'zgartirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir deb yozdilar. Keyinchalik bu g'oya "Erkin tarbiya" nomini oldi.

Rasm chizish Rossiya maktablarida umumiy talim o'quv predmeti sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda rasm chizish Dengiz akademiyasi, xirurgiya maktabi, kadetlar maktabida, fanlar akademiyasi qoshidagi gimnaziyada, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan.

Bu o'quv yurtlarida rasm chizishga o'rgatish rassomlar tayyorlash uchun emas, balki yoshlarni kasbiy faoliyati va kelajak hayotlarida foydalanishlari uchun kerak bo'ladigan soha deb qaralar edi.

1934 yilda rus rassomi A. Sapojnikov birinchi bor umumiy talim maktablari uchun "Rasm chizish kursi" nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlash asosida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, yorug'soya qonunlari ham o'z aksini topgan edi. 10-rasm. SHu bilan bir qatorda Sapojnikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, xajmiga doir metodik ko'rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko'ra har qanday natura asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.

Rossiyada tasviriy san'atni umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishiga doir yirik fundamental asar yaratganlardan biri G. A. Gippius bo'ldi. Uning "Ocherki teorii risovaniya kak obshego uchebnogo predmeta" nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilg'or g'oyalar o'z aksini topgan edi.

Rossiya maktablarida rasm chizish ommaviy tarzda o'qitila boshlangach rassom-o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi paydo bo'ladi.

Maxsus o'qituvchilar tayyorlash maqsadida 1825 yilda Moskvada Strogonov nomidagi texnikaviy rasm bilim yurtida yangi bo'lim ochilib, unda rasm o'qituvchilari tayyorlana boshladi. 1879 yildan esa Sankt-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P.

CHistyakov faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda tuzilgan dastur va qo'llanmalarda A.Sapojnikovning geometrik ko'chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat natural metod asosida rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi. Mazkur dastur va qo'llanmalarda bolalar tasviriy faoliyatlariga erkinlik berish lozimligi ham belgilab qo'yildi. Rasm chizish muammolarini hal qilishda XIX asr boshlarida Moskva va Peterburg shaharlarida tashkil etilgan "Rasm o'qituvchilari jamiyati" e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirdi. Bu davrda mutaxassislar orasida rasm chizishga o'rgatish masalalari katta qiziqish uyg'otgan bo'lishiga qaramasdan bu sohada qarama-qarshi g'oyalar ham kuchaydi. Ana shundaylardan biri formalistik oqim edi. Bu oqimning vakillaridan Kershenshteyner va Dyupyui g'oyalarini Rossiyada tashviqot qilishda Bakushinskiy katta rol o'ynadi. Uning fikricha badiiy tarbiyada "Maktab" kerak emas, bolalarni o'qitish ham kerak emas, ular xoxlagan ishlarini bajarsinlar, o'qituvchi faqat kuzatib turishi lozim. 1918 yilda Peterburgda nashr etilgan V.I.Beyer va A.K.Voskresenskiylarning "Risovaniye na nachalnoy stupeni obucheniya v svyazi s lepkoym i chercheniyem" nomli qo'llanmalarida naturaga qarab rasm ishlash, illyustrativ rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash va suratlarni kuzatish bo'limlari mavjud edi.

Badiiy ta'lim va tarbiyadagi bu qarama-qarshi oqimlarning paydo bo'lishiga Rossiyada 1917 yildagi davlat to'ntarishi va sobiq Sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi sabab bo'ldi. Ta'lim va tarbiyadagi bu nazariya keyinchalik hukmron bo'lgan bolsheviklar partiyasi tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi hamda badiiy tarbiya kommunistik tarbiya vazifalarini ruyobga chiqarishga qaratildi.

1931 yil 5 sentyabrdagi "O nachalnoy i sredney shkole" nomli davlat qarori asosida maktab dasturlarida bu o'quv predmetining maqsad va vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Rus sovet badiiy ta'limining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlardan biri D.N.Kardovskiy edi. Bu badiiy ta'lim tizimi realistlik san'at prinsiplariga asoslangan bo'lib, D.N.Kardovskiyning tashabbusi va sa'yi-harakati bilan 1942 yili Moskva pedagogika instituti qoshida badiiy-grafika fakulteti ochildi.

Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1933 yilda tashkil topgan “Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari” muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog’liq holda P.YA.Pavlinovning “Graficheskaya gramota”, N.Radlovning “Risovaniye s naturo”, “Sbornik zadaniy po risovaniyu”, YA.Bashilov va ye.Kondaxchanlarning “Detskiy risunok” va boshqa qo’llanmalari chop etildi.

Rossiyada, shuningdek, Sovet Respublikalarida rasm chizishni rivojlanishida 1943 yilda tashkil topgan Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi katta rol o’ynadi.

Keyinchalik bu akademiya asosida 1967 yilda SSSR pedagogika fanlari Akademiyasi tashkil topib, uning tarkibida badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Bu institut umumiy o’rta ta’lim maktablarida estetik tarbiyaga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borishda asosiy markaz bo’lib qoldi. Bu borada Rossiya Maorif vazirligi tasarrufida tashkil etilgan maktablar ilmiy-tadqiqot instituti va uning tasviriy san’atni o’qitishga oid laboratoriyasi diqqatga sazovor ishlarni olib bordi.

Rossiyada ikkinchi jahon urushidan so’ng samarali faoliyat ko’rsatganlardan biri ye.Kondaxchan edi. U o’zining “Metodika prepodavaniya risunka v sredney shkole” nomli qo’llanmasida bu boradagi ilg’or tajribalarga asoslanib realistik san’at va rasm chizishga o’rgatishning asosini naturaga qarab rasm ishlash egallashi lozim deb yozdi. U Rossiyada 1925-50 yillarda keng tashviqot qilib kelingan Bakushinskiyning “Erkin tarbiya” nazariyasiga qarshi chiqib, ta’lim va tarbiyada o’qituvchining katta rahbarlik faoliyatini qattiq turib himoya qildi. U “Erkin tarbiya” nazariyasi o’qituvchi rolini kamaytiruvchi va o’qitishda tartibsizlikni vujudga keltiruvchi “metod” deb o’z g’oyalarini asoslashga harakat qildi.

XX asrning ikkinchi yarmida o’qitish metodikasiga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo’yicha 1963-70 yillarda I-VI sinflar uchun sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi.

Bu darsliklar V.V.Kolokolnikov (1 va 2-sinflar), S.A.Fyodorov, M.N.Semyonova (3 va 4-sinflar), ye.E.Rojkova, ye.L.Xersonskaya (5-sinf), L.L.Makayed (6-sinf)lar muallifligida tayyorlandi.

Rossiya maktablarida ta'lim mazmunini isloh qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970 yilda "Risovaniye" o'quv predmetining nomi "Tasviriy san'at" deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganilishiga doir qismlar kengaytirilgan edi.

Rossiyada XX asrning ikkinchi yarmida "Tasviriy san'at" o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada "Risovaniye" darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda G.V.Labunskaya, V.V.Alekseyeva, V.S.SHerbakov, A.G. SHimanskaya, A.V.Karlson, G.I.Orlovskiy, R.I. Korguzalova, A.S. Brajnikova, N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin, ye.V.SHoroxov, T.YA. SHpikalova, B.P.YUsov kabilar samarali mehnat qildilar.

Bu davrda yaratilgan quyidagi ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar diqqatga sazovordir: A.P.Fomichev tahriri ostida "Metodika obucheniya risovaniyu v vosmiletnoy shkole" (-Moskva,1963), G.V.Labunskaya "Izobrazitelnoye tvorchestvo detey" (-Moskva: Prosvesheniye, 1965); N.N.Rostovsev "Metodika prepodovaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole" (-Moskva: Prosvesheniye, 1974), V.V.Alekseyeva "Izobrazitelnoye iskusstvo i shkola" (-Moskva: Sov. xudojnik, 1968), V.S. SHerbakov "Izobrazitelnoye iskusstvo. Obucheniye i tvorchestvo" (-Moskva: Prosvesheniye, 1969), A.G.SHimanskaya "Perspektivnoye risovaniye v shkole" (-Moskva: Uchpedgiz, 1959), A.V.Karlson "Didaktika i metodika na urokax risovaniya" (-Moskva: Uchpedgiz, 1959), R.I.Korguzalova "Tematicheskoye risovaniye v shkole" (-Moskva Uchpedgiz, 1959), G.I.Orlovskiy "O xudojestvennom obrazovanii uchitelya risovaniya" (-Moskva, Uchpedgiz, 1961), Z.Maslennikova "Rabota kraskami v shkole" (-Leningrad, Uchpedgiz, 1959), V.S.Kuzin "Osnovi

obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v obsheobrazovatelnoy shkole” (-Moskva: Prosvesheniye, 1979), T.YA.SHPikalova “Narodnoye iskusstvo na urokax dekorativnogo risovaniya (-Moskva: Prosvesheniye, 1974), V.V. SHoroxov “Tematicheskoye risovaniye v shkole (-Moskva: Prosvesheniye, 1975) v.b.

Rossiyada tasviriy san’atni o’qitishning psixologik asoslari haqida ham ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, bu haqda bir qator adabiyotlar nashr etildi. Bunday ishlar qatoriga P.S.Vigotskiyning “Voobrajaniye i tvorchestvo v shkolnom vozraste (-Moskva: Gosizdat, 1930), ye.I.Ignatevning “Psixologiya xudojestvennogo tvorchestva” (-Moskva: Znaniye,1971), V.S.Kuzinning “Psixologiya” (-Moskva: Visshaya shkola, 1982), P.M.YAkobsonning “Psixologiya izobrazitelnoy deyatelnosti detey” (-Moskva: Uchpedgiz, 1930) v.b.larni kiritish mumkin.

Rossiyada 1970 yillarga kelib umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’atni o’qitish mazmunini to’g’ri belgilash va uni takomillashtirish borasida bir qator olim va rassomlar guruhi paydo bo’ldi. Bulardan biri badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti tasviriy san’at laboratoriyasining mudiri, professor B.P.YUsov, ikkinchisi Rossiya maktablar ilmiy-tadqiqot institutining tasviriy san’at laboratoriyasining mudiri, professor V.S.Kuzin, uchinchisi Sobiq Ittifoq rassomlar Uyushmasining kotibi, uyushma qoshidagi estetik tarbiya komissiyasining raisi rassom B.M.Nemenskiy edi.

Ular mustaqil ravishda alohida-alohida olim va metodistlar guruhini tashkil etib, tasviriy san’atdan sinov dasturlarini yaratdilar.

Birinchi va uchinchi guruh olimlari tomonidan tuzilgan dastur “Tasviriy san’at va badiiy mehnat” deb nomlanib, u I-X sinflarda o’qitish uchun mo’ljallangan edi. B.P.YUsov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfdan bu o’quv predmetini ikki soatdan o’qitilishini nazarda tutgan edi.

V.S.Kuzin rahbarligida tuzilgan dastur esa 1-7-sinflarda haftasiga 1 soatga mo’ljallangan edi. Bu dasturlar 1985 yillarga qadar Sobiq Ittifoqining o’ndan ortiq maktablarida sinovdan o’tkazildi. Bu dasturlar katta ijobiy natijalar berganligiga

qaramasdan amaliyotga joriy etilmadi. Biroq, undagi ayrim ilg'or g'oyalar yangi tuzilgan dasturlarda o'z ifodasini topdi.

Rossiyada 1970-2000 yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni turli-tuman bo'ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodik to'plamlar nashr etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yo'nalishlarida amalga oshirildi.

1.1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1- asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. 11-rasm. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab- yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi

shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat SHarq, hattoki yevropa mamalakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, SHeroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura makatblari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nalishida rivojlangan bo'lsa-da, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bemalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasiriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. SHuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Xirot "Nigoristoni" (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi" nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagan, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, SHomuxammad Nishopuriy, YUsuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono YOriy, Xasan Bag'dodiy, Abdulla SHeroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. SHulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochildan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S.CHuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboyevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

1918 yilda umumiy ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan "Osnovno'e prinsipo' yediniy trudovoy shkolo'" nomli asosiy hujjatda "Estetik ta'lim deganda qandaydir sodda bolalar san'atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot

organlari va ijodiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan mahrum qilingan mehnat va ilmiy ta'lim jonsiz gavdaga o'xshab qoladi. Chunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir" deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.

Bolalar ijodi bilan shug'ullanayotgan ko'pchilik rassomlar bolalar ijodini ideallashtirdilar va yevropada keng tus olgan "Erkin ijod" deb ataluvchi tushukunlikka yuz tutgan nazariyadan kelib chiqqan qarashlarni yoqladilar. Bu yo'nalishdagi mutaxassislar pedagog faqat bola ijodini erkin rivojlantirishi va malakasini oshirishga yordam berishi lozim deb qaradilar. Mana shunday mutaxassislardan biri Peterburglik an'atshunos A.V. Bakushinskiy edi. U o'zining "Xudojestvennoye tvorchestvo i vospitaniye" nomli kitobida badiiy tafakkur va badiiy ijodga to'liq erkinlik berish kerak, bolalarning badiiy didini, badiiy asarini "tuzatish", "qotillik hisoblanadi" deb yozdi. Bu fikr o'sha davr pedagogika nazariyasiga tamomila zid edi.

Ma'lumki, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan kishilarning psixologiyasi ham o'zgarib boradi. Kishilar, xususan, bolalar esa ularni o'rab olgan muhitda asosan ta'lim bilan tarbiyaning uyushgan qoldagi ta'sirida rivojlanadi. Asrlar davomida yig'ilgan o'zlarining tajriba bilim va malakalarini yoshlarga o'tkazadilar. Natijada yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, bilim va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ko'p jihatdan tarbiyaning yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi yoki tarbiyachining ta'sir kuchini tan olmagan, bolalarni o'qituvchidan ajratib qo'ygan "Erkin ijod" nazariyasi yoshlarning badiiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Bu nazariya O'zbekistonda nashr etilgan dasturlarda va umumiy ta'lim va tarbiyaviy ishlarda o'z aksini topdi.

Xususan, O'zbekiston maktablari uchun 1935 yilda nashr etilgan "Rasm va loy ishi" nomli dasturda "Erkin rasm chizish" bo'limi mavjud bo'lib, bu bo'limga I sinfda 8 soat, II sinfda 6 soat, III sinfda 4 soat, IV sinfda 2 soat vaqt ajratilgan edi.

Sobiq ittifoq hukumatining 5-sentyabr 1931 y. “O nachalnoy i sredney shkole”, 25 avgust 1932 y., “Ob uchebno’x programmax i rejime v nachalnoy i sredney shkole” nomli qarorlarida maktablar ishini yanada takomillashtirish tadbirlari ishlab chiqilgan bo’lib, ularda ta’lim–tarbiya jarayonida mahalliy materallardan foydalanish ta’kidlab o’tilgan edi. SHu hukumatning 12 fevral 1933 y. “Ob uchebnikax dlya nachalnoy i sredney shkolo” nomli qarorida “har bir o’lka va viloyatlarga halq maorifi kommisariatining ruhsati va uning tasdig’i bilan o’lkashunoslik materiallari asosida boshlang’ich sinflar uchun o’quv kitoblarini nashr etish huquqi berilsin” deb ko’rsatib o’tildi.

Natijada maktab dasturlari qayta ko’rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san’at haqida suhbat o’tkazish mashg’ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o’lkashunoslik materiallari ko’p bo’lmasada, har qalay o’z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o’qituvchining yetakchilik roli katta ekanligi belgilab qo’yildi.

Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada ham, yevropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirildi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol o’ynadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo’l tutilganligi edi.

Ijobiy tomoni esa ko’proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kuchaytirish, bolalar shaxsiga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo’lish, pedagogik hamkorlikka yo’naltirilgan mustaqillik va ijodni ro’yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924 yilga kelib maktab o’quv rejalarida rasm darslari o’z o’rnini topmagan bo’lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925 yilda “Maorif va o’qituvchi“, keyin “Alanga“ jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar elon qildi. 1932 yilga kelib uning “Rasm chizishni o’rganish qo’llanmasi“, 1933 yilda esa “Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi“ albomi nashr etildi. 1935 yilda rassomning “harf yozishni o’rgan“ kitobi ham chop etildi.

Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablari asosida yaratilgan “Rasm“ predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta’lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy sa’nat studiyalari, klublar, havaskorlik to’garaklari, grafikani mustaqil o’rganuvchilar uchun ham ahamiyatli bo’ldi .

1920 yilgi o’quv rejalarida san’atga doir o’quv predmetlariga tegishli o’rin ajratilmagan bo’lsa-da, 1929 yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o’quv predmetlari o’qitila boshlandi. Lekin O’zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma’lum miqdorda O’zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. SHu munosabat bilan O’zbekiston xalq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: “Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O’qituvchi oldindan o’lkashunoslik materiallarini to’plab olgan holda, o’z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi”.

Shu munosabat bilan boshlang’ich sinf “Rasm va loy ishi” dasturiga o’lka materiallari kirita boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O’zbekiston halq amaliy san’atiga doir materiallar edi.

Ta’sviriy san’at predmeti metodikasi shakllanishida 1934 yilda Toshkentda, keyinchalik Respublikamizning har bir viloyat markazlarida tashkil etilgan “Markaziy badiiy tarbiya uylari” katta rol o’ynadi. Bu tarbiya uylari o’quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi.

Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho’rba bilan bir qatorda tasviriy san’at sho’rba ham bo’lib, unda uch yillik tasviriy san’at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi ikkinchi sho’rba bolalar rasmlarining ko’rigini tashkil etish bilan shug’ullangan. Uchinchi sho’rba esa nihoyatda serqirrali bo’lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan rasm darslarida ish olib boruvchilarga metodik yordam ko’rsatish hisoblanardi. SHuningdek, bu sho’rba qo’yidagi ishlarni ham olib borgan:

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo'limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo'lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo'limida o'zbek amaliy san'at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939 yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda tasviriy malakalarni o'stirish, ko'proq rasm chizishga o'rgatishdan iborat bo'lishi lozim deb topildi. SHuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e'tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va qisman undan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o'zgardi, uning mazmunida ta'limdan ko'ra tarbiyaviy jihatlar kuchaytirilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga qaratildi. SHu maqsadda rasm darslari vatanparvarlik va baynalminal mazmundagi tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi. Ular ko'proq rassomlarning nemis-fashist bosqinchilarining kirdikorlarini ochib tashlashga qaratilgan asarlardan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng "Rasm" predmetining o'qitilishiga e'tibor kuchaytirildi va u maktab o'quv rejalarida tegishli o'rinni egalladi. 1947-48 o'quv yili uchun tuzilgan o'quv rejada "Rasm" uchun haftasiga I-sinfda 1 soat, II- sinfda 1 soat, III-IV-sinflarda 0,5 soat, V-sinfda 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, natijada umumiy haftalik soatlar 4 soatni tashkil etdi.

1950-60 yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda "Rasm" o'quv predmetining vazifasi urushga qadar tuzilgan dasturlardan farq qildi.

1953 yilda nashr etilgan dastur "Rasm solish" deb nomlanib u o'quvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynashi ta'kidlangan bo'lsa, 1956 yilda nashr etilgan "Rasm" dasturida esa bu predmetning vazifasi o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biridir deb ko'rsatildi.

1958-59 o'quv yiliga kelib, o'quv rejasida rasm chizishga ajratilgan soatlar oshdi va u 1-6 sinflarda qaftasiga I soatdan o'qitila boshlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumati tomonidan maktablarda rasm predmetining o'qitilishiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu avvalo maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlashda o'z aksini topdi. Ma'lumki, maktabda badiiy ta'limni rivojlantirish ko'p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog'liq edi. 1950 yillarda bu masala bilan Samarkand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P.P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug'ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti xalq xo'jaligini, xususan umumta'lim maktablarini yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o'quv predmetlarning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig'ilishlarda ham o'z ifodasini topdi. SHuningdek, badiiy bilim yurtini bitirib chiquvchilar maktablarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

Tasviriy san'atning o'qitilishini takomillashtirishda 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o'ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. SHuni ham qayd qilish lozimki, mazkur fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi ancha yuqori bo'lib, o'sha yillar bu fakultetda mashg'ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O'zbekiston halq rassomi A. Abdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassomlar YU. yelizarov, M. Saidov, A. YUrovskiy, T. Oganegov, shuningdek Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini yangigina bitirib kelgan yosh lekin talantli rassomlar R. CHoriyev, N. Kivinina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964-70 yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang'ich sinf metodikasi fakultetlarida "Boshlang'ich sinf va tasviriy san'at o'qituvchisi" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo'nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika

institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo'nalish o'zini oqlamagach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy- grafika fakultetlari ochildi.

1970 yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, SHahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi

1980 yil boshlarida tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha yiliga tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qondirish mumkinligini bildirar edi.

Bolalarga rasm chizishni o'rgatish bo'yicha ilmiy, metodik ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 1960 yilda O'zbekiston pedagogiki fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida musiqiy-badiiy ta'lim bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir bir qator dolzarb masalalarni tadqiqot qilishga kirishdi. Ular "Tasviriy san'atdan 1-3 sinf o'quvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalari darajasini aniqlash" "Narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yo'llari", "Boshlang'ich sinflarda mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya" "O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish", "O'zbekiston dekorativ-amaliy san'ati vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash", "Estetika asoslari va san'atshunoslik" dan fakultetiv kurs, "O'zbekiston umumta'lim maktablarida naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi", " Maktabda tasviriy san'atni boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liqligi" va boshqa tadqiqotlar shular jumlasidandir. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari asosida maktablar uchun dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ular Respublika maktablariga tadbiq qilindi.

YAna bu bo'lim o'z faoliyati davomida tasviriy san'atni o'qitishga doir ilmiy xodim, tadqiqotchi-aspirantlar qamkorligida quyidagi ishlarni tayyorladi va nashr etdi: "Tasviriy san'at" (1-3 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi,

1965-1981); “Tasviriy san’at” (4-6 sinflar uchun dastur. –Toshkent: O’qituvchi, 1967-1981); “Naqqoshlik” (Maktab va pioner uylari va saroylari uchun dastur. – Toshkent: O’qituvchi, 1976); “Tasviriy san’at va loy ishi” (Maktab tayyorlov guruxlari dastur.– Toshkent, 1980.) kabilar shular jumlasidandir.

1965 yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining estetik tarbiya bo’limida tasviriy san’at o’qitish metodikasi bo’yicha olib borilayotgan ishlarni tartibga solish maqsadida darslik yaratishga kirishildi. 1969 yilda 1- sinf uchun “Tasviriy san’at” (A. Jilsova, R. Hasanov); 1974 yilda II sinf uchun “Tasviriy san’at”

(R. Hasanov, A. Jilsova); 1976 yilda III sinf uchun “ Tasviriy san’at”

(R. Hasanov, A. Jilsova); 1977 yilda IV sinf uchun “ Tasviriy san’at”

(R. Hasanov, B.Oripov va boshqalar) nashr etildi. 1-3 sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi.

1970 yildan boshlab maktablarda tasviriy san’atni o’qitish muammosi yuzasidan estetik tarbiya sho’r’basi qoshida Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o’qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o’qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Markaziy instituti va viloyat o’qituvchilari malakasini oshirish institutining metodistlari, O’zbekiston maorif vazirligining metodistlari, aspirant-tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mazkur masalalar bilan bir qatorda maktab tasviriy san’at o’qituvchilari ham shug’ullandilar.

O’zbekiston umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o’qitishni yaxshilashda olib boriladigan tadqiqotlarning natijasi sifatida quyidagi nashr qilingan metodik qo’llanma va ko’rgazmali qurollar alohida ahamiyat kasb etdi:“Narsaning o’ziga qarab rasm chizish”

(R. Hasanov), – Toshkent: O’qituvchi, 1969; “Boshlang’ich sinflarda naqsh chizish metodikasi” (R. Hasanov), – Toshkent: O’qituvchi, 1972; “Tasviriy san’atdan tablitsalar” (R. Hasanov),- Toshkent: O’qituvchi, 1975 ; “ 1-3 sinflarda tasviriy san’at darslari” (R. Hasanov),- Toshkent: O’qituvchi, 1977; “ Rasm chizish va uni o’qitish metodikasi” (Z.Egamberdiyev, R.Hasanov va boshqalar),- Toshkent:

O'qituvchi, 1977; “ Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya” (R.Hasanov),-Toshkent: O'qituvchi, 1980; “Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari” (R.hasanov), - Toshkent: O'qituvchi, 1983; “YOsh avlodni san'at vositasida estetik tarbiyalash” (R.Hasanov),-Toshkent: O'zbekiston, 1982; “Maktab chizmachilik, tasviriy san'at kabinetlarini tashkil etish va o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar” (B. Oripov),-Toshkent: O'qituvchi, 1974; “Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari” (B. Oripov), - Toshkent: O'qituvchi, 1978; “Naqqoshlik” (Q.Qosmov),-Toshkent: O'qituvchi, 1982. Yana shu narsani ham quvonch bilan ta'kidlab o'tish lozimki, Pedagogika fanlari institutining estetik tarbiya bo'limi 1970 yildan boshlab muntazam ravishda maqolalar to'plamini nashr eta boshladi. Bu to'plam bo'lim ilmiy xodimlari, tadqiqotchi-aspirantlarning ishlaridan tashkil topgan bo'lib, ularda tasviriy san'atni o'qitishga katta o'rin ajratilgan edi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilashda A. Shohamidov, M. Nabiyevlarning 1964 yilda nashr etilgan “I-IV sinflarda rasm darslari” metodik qo'llanmasi, O. Apuxtingning 1965 yilda nashr etilgan “San'at haqida suhbatlar”nomli qo'llanmalari o'qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

1970-yilga kelib tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalari ko'zga ko'rina boshladi va ularning faoliyatlari ancha faollashdi. Natijada mamlakatimizda bir qator mahoratli o'qituvchilar A. Shohamidov (Toshkent shahri, 22 maktab), E.Risqullayev (Toshkent shahri, 81-maktab), Belonoshkin (Toshkent shahri, 188-maktab), O. Dadaxonov (Namangan shahri, 26-maktab), A.Abdullayev (SHahrixon shaxri, 1-maktab), I. Boboniyozov (Urganch shahri, 35 maktab-internat), G. Turobboyev (Namangan shaxri, 29-maktab), K. Mansurov (Toshkent viloyati, 27-maktab), P. Mustafoyev (SHahrisabz shahri, 6-maktab), A. Mannopjonov (Namangan viloyati, 12-maktab) va boshqalar shular jumlasiga kiradi. SHuningdek, Respublika pedagogik o'qishlariga qatnashayotgan muallimlar soni ham ortadi. Masalan, 1963 yilgi Respublika pedagogika o'qishlarida bironta ham tasviriy san'at o'qituvchisi qatnashmagan bo'lsa, 1970 yilga alohida estetik tarbiya sho'rbasi tashkil etildi. 1972 yilda esa “Estetik tarbiya” sho'rbasida “

Tasviriy san'at" kichik sho''basi ish olib bordi va unda 17 ma'ruza tingladi. Keyingi pedagogik o'qishlarda ma'ruzachilarning soni yana ham ko'payib bordi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yaxshi natijalarga erishib, pedagogik o'qishlarda muvaffaqiyatli qatnashganliklari uchun bir qator taniqli o'qituvchilar vazirlikning mukofotlariga ham sazovor bo'ldilar.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratini oshirish va ilg'or pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o'tkazilayotgan seminar va konferensiyalar katta rol o'ynadi.

1969 yilda estetik tarbiyaga bag'ishlangan Respublika seminar -engashi 1970 yilga kelib an'anaviy Respublika konferensiyaga aylandi va u har yili galma-galdan Respublikamizning viloyatlarida o'tkazib turildi. Samarqand, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Namangan, Andijon konferensiyalarida o'qituvchi, tarbiyachi, xalq maorifining rahbar-xodimlari bilan bir qatorda ilmiy xodimlar, metodistlar ham ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ma'ruzalarda dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdilar. Bunday ilmiy-amaliy konferensiyalar faqat Respublika miqyosida emas, balki viloyat, shahar, tuman miqyosida ham o'tkazib turildi.

O'zbekiston vazirlar mahkamasining 1966 yil 31 dekabr qaroriga muvofiq, O'zbekiston Vazirlar kengashining 1967 yil 22 martidagi farmoyishi asosida O'zbekiston maktablaridagi ta'lim mazmunini aniqlash bo'yicha komissiyalar tuzildi. Boshqa fanlar qatori maktablarda tasviriy san'at bo'yicha ham komissiya ishladi. Bu komissiyaga maktab o'qituvchilari, xalq maorifining xodimlari, metodist, ilmiy xodim, rassom, san'atshunoslar jalb etildi.

“Tasviriy“ san'at deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo'llanib kelingan “Rasm” predmeti asosida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.

O'zbekiston Maorif vazirligi va O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tekshiruvlari natijasida yangi ta'lim mazmuni ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilmayotganligini ko'rsatdi. SHuningdek, dasturdagi badiiy qurish-yasashga doir materiallar esa o'quvchilar kuchiga mos

emasligi ham ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bu bo'lim keyingi yillarda dasturdan chiqarib tashlandi.

Yangi dastur o'quvchilarning estetik tarbiyasiga aloqador bo'lgan tashkilotlar muassaslar, uyushmalarning faoliyatini qo'yidagi yo'nalishlarda faollashtirishni nazarda tutgan edi:

a) har yili mantazam ravishda o'quvchilar rasmlari respublika ko'rgazmalarini o'tkazish;

b) tasviriy san'at bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish natijasida maktab to'garaklari, san'at maktablari, pedagogika bilim yurtlari va institutlari uchun bir qator dastur, darslik, qo'llanma va to'plamlar tayyorlash va nashr etish;

v) umumiy ta'lim maktablarida yirik rassomlar asarlaridan ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish;

g) O'zbekiston rassomlar uyushmasi qoshida o'quvchilar estetik tarbiyasi bo'yicha komissiya tashkil etish.

Maktablarda so'nggi yillarda tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash bo'yicha bir qator yirik tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa-da bu sohada keskin o'zgarishlar ro'y bermadi. Chunki, ko'pchilik tasviriy san'at o'qituvchilari maxsus ma'lumotga ega emas edilar. Benkov nomidagi badiiy bilim yurtini birtiruvchilarining ko'pchiligi maktablarda tasviriy san'atdan haftalik dars soatlari kam bo'lganligi sababli u yerda ko'p qo'nim topishmas edi. Oliy maxsus ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlaydigan Nizomiy nomli TashDPIning badiiy-grafika fakultetining bitirib chihayotgan yoshlarning o'qituvchilik faoliyatlari ham ana shunday tugardi.

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarining yetishmasligi unga jiddiy e'tibor berishlikni talab etdi. Natijada O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining 1974 yil 26 avgustda "Pedagogika o'quv yurtlarida musiqa va ashula, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash va bu predmetlarning Respublika umumta'lim maktablari va pedagogika o'quv yurtlarida o'qitilishini yanada yaxshilash haqida" gi qaror qabul qilindi.


O'zbekiston maorif vazirligining mazkur qarori Qoraqalpog'iston Respublikasi maorif vazirligi, Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo'limlariga hamma umumta'lim maktablari, o'quv yurtlarini maxsus ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rishni, vazirlikning reja-moliya boshqarmasiga, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarining musiqa, badiiy-grafika fakultetlarida musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini kechki va sirtqi bo'limlarida ham tayyorlashni maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishni yukladi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash borasida qabul qilingan O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining O'zbekiston rassomlar uyushmasi boshqarmasi bilan hamkorlikdagi 1979 yil 27 iyunda "Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o'qituvchilar va pedagogika o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari badiiy tarbiyasini yanada yaxshilash choralari haqida" qabul qilgan qarori salmoqli o'ringa ega bo'ldi.


Qarorda o'tgan davrda tasviriy san'at bo'yicha halq maorifi va rassomlar uyushmasi tizimida qo'lga kiritilgan yutuqlar tilga olindi va kamchiliklar, ularning bartaraf etish yo'llari ko'rsatildi. Xususan, unda Qoraqalpog'iston Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo'limlariga, pedagogika o'quv yurtlarining rahbarlariga tezkorlik bilan maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, maktablar, pedagogika o'quv yurtlarida badiiy tarbiyani yaxshilashning aniq tadbirlarini ishlab chiqish topshirilgan edi.



RANGTASVIR



MANZARA JANR



1.2. Mustaqillik yillarida tasviriy san'atning o'qitilishi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. SHu maqsadda 1992 iyulda "Ta'lim tug'risida" gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi " ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5 may 1993 yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

-mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar;

-ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

-ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston SHarq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

-maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

-maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;

-O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi.

Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at" dasturlari tayyorlandi. SHuningdek, 1-8 sinflar uchun mo'ljallangan 560 soatli "Tasviriy san'at" dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko'p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi.

Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R.Hasanov va X.Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari" (-Toshkent: O'qituvchi, 1997),

R.Hasanovning 5-sinf o'qituvchilari uchun "Tasviriy san'at darslari" (-Toshkent: O'qituvchi, 1997.) nomli qo'llanmalari chop etildi.

Yangi dasturlar asosida tasviriy san'at darsliklarini yaratish muammosi paydo bo'ldi. Natijada 1996-1998 yillar davomida 1-4 sinflar uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat" darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998 yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O'zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999 yilda yangi o'quv rejalari va ta'limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta'limning davlat standartida bu o'quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi.

R.Hasanovning fakultativ mashg'ulotlar uchun "Tasviriy san'at" (1989), "O'qituvchining o'zi ustida mustaqil ishlash dasturi"(1993), "Tasviriy san'at darsliklarini yaratish mezonlari" (1994), O.Xudoyorovanning "O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish tarixidan" (1993), B.Boymetov va N. Tolipovlarning " Maktabda tasviriy san'at to'garagi" (1995) nomli risollari ham amaliyotchilarga yetkazildi.

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining "San'at va chizmachilikni o'qitish nazariyasi va metodikasi" bo'limida "O'quvchilarni tasviriy san'atdan mustaqil ishlari", "Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi"ga oid tadqiqotlar ham olib borildi.

1995 yilda buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 540 yilligi munosabati bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida "Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o'rganishning pedagogik ahamiyati" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. 2000 yilda esa Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yiligi munosabati bilan "Kamoliddin Behzodni jahon tasviriy san'ati va ta'lim tizimiga ta'siri " mavzusida ana shunday anjuman o'tkazildi. Ikkala anjuman materiallari ham to'plam shaklida chop etildi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hujjatlarining e'lon

qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. U amaldagi ta'lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo'lib, unda ta'lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning “Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Ushbu hujjatda dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida barcha fanlardan davlat ta'lim standartlarini yaratish va amaliyotga joriy etish belgilab berildi. Barcha fanlar qatori “Tasviriy san'at” o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ham tayyorlandi. (3.41-42), Mazkur standartda o'quvchilarni 1-7 sinflarda tasviriy san'atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish (1-4 sinflar), badiiy qurish-yasash (1-4 sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflar), san'atshunoslik asoslari (1-7 sinflar), kompozitsiya (1-7 sinflar) bo'limlari qayd qilindi.

Vazirlar Maqkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta'lim standarti bo'yicha 1999 yilda o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmeti 1-7 sinflarda o'qitilib, uning nomi hamma sinflarda “Tasviriy san'at” bo'lib qoldi. Bu o'zgarishlar asosida yangi darsliklar yaratish muammosi paydo bo'ldi. Bu darsliklar 2001 yilda R.Hasanov tomonidan 1-3 sinflar uchun tayyorlandi. Lekin, ular Respublika xalq ta'limi Vazirligi darsliklar sonini ko'paytib ketganligini vaj qilib ularni nashr etishni lozim topmadi. Bulardan biri birinchi sinf darsligi 2001-2002 yillarda chop etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya

shaklida himoya qilindi. Ular R.Hasanovning 1994 yilda “O‘zbekiston umumta’lim maktablarida badiiy ta’lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari” mavzusida doktorlik, A.Turdaliyevning 1996 yilda “Tasviriy san’at darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni badiiy kasb-hunarlarga yo‘llash”, O.Xudoyorovanning 1997 yilda “O‘zbekiston umumta’lim maktablarida tasviriy san’at o‘qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti” mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.

Mustaqillik yillarida tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashga alohida e’tibor berila boshlandi. Xususan, 2002 yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo‘limlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Tasviriy san’at o‘qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

Mustaqillik yillarida R.Hasanov tomonidan tayyorlangan va chop etilgan 1-7- sinflar uchun “Tasviriy san’at” dasturi (1994 y.), “Tasviriy san’at ta’limi konsepsiyasi” (1995 y.), “Tasviriy san’atdan davlat ta’lim standarti” (1999 y.), “Tasviriy san’atdan davlat ta’lim standartlarini amaliyotga joriy etish” (2000 y.), “Tasviriy san’atdan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash” (2003 y.) nomli ishlari mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitilishini yaxshilashga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

II-BOB. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar,

mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. SHuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda tasviriy san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriy san'atdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi. Shuningdek, ulardan to'laligicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri emas.

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni

rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2. Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yullash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. SHuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday o'quv predmeti ta'lim mazmunida, albatta, o'zbek halqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma'naviy merosni o'ziga asos qilib olishi lozim. SHunday ekan, o'zbek halqining dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatilishi talab etiladi. SHu bilan birga maktablarda ta'lim mazmunining viloyat va shaharlar bo'yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. CHunki, O'zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san'at va me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Rishton, SHahrisabz, Nurota, Marg'ilon, /ijduvon, Urgut, Xo'jayli va boshqa shaharlarning san'atida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o'quvchilarga o'rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda, o'quvchilarimiz milliy qobiqqa

o'ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmay qoladilar. SHuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san'at, dekorativ-amaliy san'at, me'morchilik san'ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'atdan beriladigan malakalarni unutmashimiz zarur.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

-o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

-o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go'zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

-shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llab-quvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish:

-bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi. Dekorativ kompozitsiya darslarida o'quvchilar naqshlar, amaliy san'at buyumlaridagi go'zallikni his qiladilar va o'zlari ham shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga halq amaliy san'ati namunalari ko'rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O'quvchilar o'zbek va qardosh halqlarning naqshlarini kuzatish va o'rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go'zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tushunadigan bo'ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo'ldan-qo'lga o'tib, har jihatdan takomillashib, go'zallashib borgan halq san'ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san'at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Gullar, hayvonlar va parandalarni natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o'qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o'lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi.

O'quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo'laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to'lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo'lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning yengil parvozi, baxorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechg'i miltillab ko'rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg'uning o'sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya'ni "xushbichim", "quvonchli", "bayramdagidek" ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O'quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko'ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o'rgatiladi.

O'qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko'rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg'irdan so'ng o'simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo'ygandek ko'rinishi, ulardagi yomg'ir donalarining kumushdek yaltirab ko'rinishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg'ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to'kilgan barglarning shildirab "gaplashishi" obrazli ko'rinishda ifodalanadi. Bolalar o'z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so'zsiz tasvirlanuvchilarning o'lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va xayvonlarni shakl va rang jixatdan o'ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko'rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o'ylaydilar. O'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o'ylar ekanlar, o'qituvchi o'z e'tiborini ularning tushunchasiga

mos bo'lgan voqea va hodisalarning go'zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go'zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o'rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi san'atshunoslik asoslari darslarida o'lkamiz tabiati, halqimizning fidokorona mehnati, buyuk ajdodlarimizning mustaqillik uchun qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko'plab asarlarni namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ulardagi nozik nafosatni ochib berishga harakat qiladi. Bu borada rassomlardan O'.Tansiqboyev, N.Karaxan, A.Mo'minov, L.Salimjonova, I.Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o'lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o'rganadilar va ularni o'z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O'sha davrdagi binolar, o'simliklar, xayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ma'lumki, bolalar, tarixiy. batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, halqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko'pgina bilimlarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatishda tasavvur va xotirani, ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda maktabda tasviriy san'atni oldiga tushadigan bironta ham o'quv predmeti yo'q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ijodiy fikrlashga o'rgatishda katta o'rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o'nta masalani bir

yo'l yoki bir formula asosida yechilsa, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo'l bilan yechadilar, u so'zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o'ylashga yo'naltiradi. Aytaylik, o'quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qayerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo'ynidami yoki uy ichidami, rasmda odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarmi, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o'lchovlari qanaqa bo'lishligi haqida o'ylaydilar.

Eng muhimi, qog'oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. SHuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari-yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo'llaydilar. Ular o'z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo'lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan topshiriqlar esa o'quvchilarni birdan bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. Bolalar o'quv topshiriqlarini yechishda o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma'lum bo'lgan yo'ldan muammoni tez va oson hal qilib qo'yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas yechimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va hayolotlarini, me'yor va uyg'unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada ma'lum miqdorda orginal, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. SHuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan ana shunday kishilarga bog'liq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'zda tutilmagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson yechimini topa oladigan kishilar halqimizni taraqqiyotining yangi bosqichga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ruyobga chiqishga yordamlashadi. SHuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dexqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuhtai nazardan qaraganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy tafakkurni o'stirishda tasviriy san'at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning ijodkorligi esa ko'proq bolalarda diqqat va tasavvurni o'stirishi bilan bog'lanadi. O'quvchi ayniqsa, boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b.) bilan bog'liq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz yechib bo'lmaydi. SHuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bog'liq. Ma'lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy bo'ladilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko'rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni to'lqinlantiradi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur

tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarining joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham xotirani, ayniqsa ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks etiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan, rassomlar chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san'at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janridagi asarlar, ayrim halq va mamlakatlar haqida to'la-to'kis va keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar. Shuningdek, ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar va unga tegishli bahoni ham bera oladilar. SHu bilan bir qatorda asarlardagi go'zallik, ko'tarinkilik, qaxramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning

nafosatga to'la tabiati, halqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligini shoxidi bo'lamiz. Masalan, ona-tuproq uchun kurash olib borgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rangorang go'zal manzaralarini, o'zbek halqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini ifodalovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar, O'zbekistonning shirin-shakar va rangorang mevalari, gullaridan tuzilgan natyurmortlar rasmini ishlaydilar, natijada ularda Vatanga va o'z halqiga nisbatan mehr–muhabbat, milliy g'urur kabi sifatlar shakllantiriladi.

“Daladagi ishlar”, “Ko'chat o'tkazish”, “hosilni yig'ib terib olish”, “Fermada”, “Bizning qurilishlarimiz ” kabi mavzularda rasm ishlash, halqimizning turli sohadagi (mediklar, kosmonovtlar, o'qituvchilar, olimlar, madaniyat va san'at arboblari, qishloq xo'jaligi xodimlari v.b.) shijoatli mehnatini, mehnat qahramonlarining obrazlarini ifodalovchi tasviriy san'at asarlarini namoyish etish orqali bolalarda mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifalaridan biri bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash hisoblanadi. Ma'lumki, har bir bolada u yoki bu hunarga, ilmga havasi bo'ladi. Bu havas har doim har bir bolada ochiq namoyon bo'lmaydi, ayrimlarida ochiq, ayrimlarida yashiringan bo'ladi. Maktab jamoasining, har bir o'qituvchisi va tarbiyachisining vazifasi har bir boladagi mavjud havasni rivojlantirish, yashirincha havasini ro'yobga chiqarib, ularni san'atni tushunish va hurmat qilishga o'rgatishdan iborat. Maktabdagi boshqa fanlar qatori tasviriy san'at darslarida ham bolalarni ko'pdan-ko'p hunar va kasblarga yo'naltirish, ularni tarbiyalash imkoniyatlari bor. Xususan, rassomlar tomonidan ishlangan san'at asarlarida mashhur turli kasb egalari, bunday kishilarning ish jarayonlari (mehnat qahramonlari, xizmat ko'rsatgan kishilar, militsiya xodimlari, olimlar, o'qituvchilar, injenerlar, dehqonlar v.b.) aks etadi. SHuningdek, tasviriy san'at haqida olib boriladigan suhbatlarda mashhur halq

amaliy san'ati ustalari, rassomlar, haykaltaroshlarning hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi.

Tasviriy san'at darslarida bolalar turli kasb va hunarlar haqida rasm ishlaydilar (Masalan, "Novvoy", "Fermada", "Qurilishlar", "Olimlar munozarasi", "Sirkda", "Otchoparda", "Fazoga parvoz", "Sport o'yinlari", "CHavandoz", "Kurash", "Sahnadagi o'yin", "Hayvon o'rgatuvchi", "Hosilni yig'ib terib olish", "Dorbozlar", "Avtopoyga", "Sehrgar", v.b.). Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi so'zsiz suvratda aks etgan kasblarning mazmuniga to'xtaladi hamda bu kasblarga bolalarni qiziqtiradi.

Hozirgi kunda biz bolalar orasida maktabdan bezish hollarining ko'payish kuzatilmoqda hamda jinoyatchilik va qonunbuzarlikning oshib bormoqda. Bolalarda madaniyatning pastligi, ularning bo'sh vaqtlarini san'at, sport bilan band qilib qo'yilmaganligi, o'qish jarayonida bolalarning qiziqishlarining hisobga olinmaganligining, bolalarga maktabda inson emas mehnat resurslari sifatida qarab kelinayotganligi oqibati deb bilamiz. Bundan buyon ta'limni insonparvarlashtirish talabalaridan kelib chiqqan holda totalitar tuzum davrida maktablarda va maktablardan tashqari muassasalarda ro'y berib kelgan kamchiliklarni bartaraf etish, ta'lim va tarbiya ishlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifalardan bo'lib turibdi. SHuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asoslaridan hisoblangan tasviriy san'at, bu bolalarning ko'ngil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorlikni, tafakkurni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga, uni o'zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o'rgatuvchi o'quv predmeti deb qaramoq lozim. Tasviriy san'at ijodiy ishlar jarayonida o'z vazifalarini bajara borib bolalarga quvonch va qalb ko'tarinkiligini olib keladi, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

2.1.Kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi.

O'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish

Metodika, metod — aslida bilish, o'rganish, tadqiqot yo'li, ijo-diy usul, pedagogik usul, ma'noni anglatadi. Pedagogikada o'qitish metodlari deganda o'quvchilariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida bilim, mahorat va kasbiy malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tushuniladi.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning o'quv-chilar bilan ishlash usullarining mazmun, va xususiyatlarini o'rganib chiqib, tasviriy san'atni o'qitilishining xilma-xil metodlarini

qo'llashga o'rgatadi:

«**Tasviriy san'at o'qitish metodikasi**» o'qituvchining o'quvchi-larga badiiy ta'lim berish usullarini puxta bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish samarasining oshirilishini nazarda tutadi.

«Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» pedagogikada ilmiy fan sifatida tajribadagi sinalgan ijobiy ishlarning nazariyasini umum-lashtirib, o'quv va pedagogik amaliyotda samarali natijalarga ega bo'lgan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, ruhshunoslik, san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslangan bo'lib, tasviriy san'atni o'rgatishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi. Shu bilan birgalikda kelajak avlodning tarbiyalashi-da yangidan-yangi zamonaviy metodlarini aniqlab beradi.

Zamonaviy metodlardan interaktiv, pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalar, tabaqalashtirilib o'qitish, moduli o'qitish, didaktik o'yinli o'qitish, muammoli o'qitishni o'quv jarayonida qo'llanilishi kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishi-ning sabablaridan bin, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qi-dirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulo-salarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tar-biyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruv-chilik, yo'naltiruvchilik vazifasini ham bajaradi.

Interaktiv metodlar — bu jamoa bo'lib fikr yuritish, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshirilishi.

Innovatsion texnologiya (ingl. Innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiya — pedagogik jarayonda o'qituv-chi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bunday hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

« o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasikka, mustaqil fikrlash, ijod bilan izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qi-ziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshishini rivojlantirilishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'-liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TTV, kom-pyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi — bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kutilgan nati-jaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bogliq bo'ladi, ya'ni o'qitish jarayonida, ko'zlangan maqsaddan samarali natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyati, ijobiy natijasi, mustaqil fikrlashi, ijodiy ishlashi, izlanishi, tahlili va xulosa chiqarishni tashkil etishlari, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan,

oldindan loyihalashtirilgan va samarali natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tasviriy san'at o'qituvchisi har bir darsni oldindan tasavur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish uchun o'qituvchi badiiy pedagogika, san'at psixologiyasi, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, metodlar va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Quyida tasviriy san'at fanidan «Perspektiva» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida havola qilamiz.

2.2. O`rta maxsus kasb-hunar kollejlari portret janrini o`rgatish metodikasi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Bu o'zgarishlar mamlakatni yangi yo'ldan ravon odimlashi, rivoj topgan mamlakatlar qatorida o'rin egallashi uchun qaratilgan. Jumladan, o'tmish madaniy merosimizni yaratib bergan atoqli olimlar, donishmandlar, san'atkorlar, davlat arboblari hayoti va ular qoldirgan ma'naviy merosni o'rganish masalasiga hozirda davlatimiz, Prezidentimiz juda katta e'tibor bermoqda.

Jumladan, buyuk o'zbek rassomi Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodini, qoldirgan merosining qimmatini va ahamiyatini, madaniyatimiz tarixida tutgan o'rnini o'rganish, Sharq miniatyura san'atida etakchi va betakror maktab yaratgan

buyuk mo'yqalam sohibi faoliyatini o'rganish, o'zligini qayta tiklayotgan xalq uchun har qachongidan ham ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

XIV – XV asrlar – o'zbek xalqi tarixining oltin sahifalaridan biridir. Amir Temur saltanatida yuzaga kelgan Uyg'onish davri, yuksak darajadagi ijodiy va qulay tarixiy muhit tufayli Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod singari ko'plab buyuk olim, faylasuf, shoir, rassom, san'atkorlar samarali ijod etdilar.

Shular orasida Kamoliddin Behzod nafaqat Turon- zamin xalqlari madaniyati va san'ati, balki umumjahonssivilizatsiyasi ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan rassom hamdir.

Haqiqatan ham Kamoliddin Behzod o'z davrining buyuk rassomi, «Moniyi soniy» unvoniga sazovor bo'lib, asr nodiri, rangtasvirda benazir yirik betakror rassom- dir.

Kamodiddin Behzod taxminan 1455 yilda Hirotda kambag'al hunarmand oilasida tavallud topgan. Behzod uning ismi yoki taxallusi ekanligi noma'lum. Behzod ota-onasidan juda erta ajraladi, uni Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olib, voyaga etkazdi va o'zining Hirotdagi "Nigoristoni"da (ya'ni o'sha davrdagi San'at akademiyasida) unga naqqoshlik hunarini o'rgatdi. Bunday mashhur rassomning qaramog'ida o'sib ulg'ayishning o'zi Behzodning kelajakda buyuk san'atkor bo'lib etishishga zamin yaratdi. Shuningdek, Behzodning mohir san'atkor bo'lib etishuvida o'sha davrda Hirotda muhitidagi bir talay eguk rassomlar, xattotlar, musiqashunoslarni birlashtirib turgan San'at akademiyasi ham katta rol o'ynagan.

Behzodning dastlabki ijodi Sulton Husayn Botqaro saroyda va u erdagi juda ko'p shoir, olim, san'atkorlarning homiysi Mir Alisher Navoiy rahnamoligida boniartadi. U Alisher Navoiyning ustozlari Abdurahmon Jomiy, Hirotdagi xattotlar ustozlari Sulton Achi Mashhadiylar bilan ijodiy aloqada bo'ldi. San'at va nafosatga ishtiyoqi kuchli bo'lgan Behzod mehnatsevarligiga, zahmatkashligiga tufayli Hirotda mashhur mo'jaz Rangtasvir ustasi bo'lib etishdi. SHundan so'ng podsho Sulton

Husayn Boyqaro Behzodni o‘z huzuriga — saroyga jalb qiladi va unga maxsus joy ajratib, ijodiy ishlariga zarur sharoitlarni yaratib beradi.. 1487 yilda Kamoliddin Behzod podshiningshaxsiy farmoni bilan Hirotdagi saltanat kutubxonasining boshlig‘i etib tayinlanadi. SHoh qarmog‘ida: "Ijod yaratganning korxonasi musavvirining irodasi, yorug‘ osmon nigorxonasi muharririning qudrati bilan hukm qilurmizki, asr nodiri, musavvirlar peshvosi, ustoz Kamoliddin Behzod Humoyun kutubxonasi axlsha: kitob, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, halkor va zarkublarga, shuningdek, mazkur ishlarga mansub bo‘lgan Alloh panohidagi butun mamlakat jamoasiga boshliqlik mansabi topshirilsin". Tahrir etildi: 884 hijriy yil 27-jumadul-ul avval (1487 y. 22 iyul)⁴.

1506 yilda Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng taxt SHayboniyxon qo‘liga o‘gdi. SHayboniyxon ham Behzod ijodiga hurmat qo‘rsatib, unga tegishli sharoitlar yaratib beradi. 1510 yilda Eron Safaviylar saltanat SHayboniyxonga qarshi urush ochib, uni engadi. SHayboniyxon jangda halok bo‘ladi. SHoh Ismoil Safaviy 1512 yilda Hirotdaga bir necha iste‘dodli san‘atkorlarni o‘zi bilan Hirotdan Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod va uning bir qator shogirdlari ham bor edi. Bu erda Behzod o‘zining shogirdlari bilan mo‘‘jaz rangtasvirning yirik maktabini yaratdi. 1514 yilda turk podshosi Eronga hujum qiladi. Ularning qo‘li baland kelishini bilgan Eron shoxi Ismoil Kyamoliddin Behzod va mashhur xatgox SHoh Mahmud Nishopuriyni turklar olib ketib qolishidan xavfsirab, ularni bir g‘orga yashrib qo‘yishga farmon beradi. 1522 yilda SHoh Ismoil Safaviy maxsus farmon bilan Behzodni Tabrizdagi saltanat kutubxonasining boshlig‘i etib tayinlaydi.

Behzod asarlarining ko‘p qismini o‘z ona yurti - Hirotdan uzoqda, ya’ni Tabrizda yaratdi. Erondagi jangu jadallar, alg‘ov-dalg‘ov va ur-yiqitlar, musavvirning qadrdon ustozlari va yaqin do‘stlaridan uzoqda yashash uning hayoti va ijodiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. SHuning uchun ham musavvir "Tuyalar jangi" nomli asarini yaratganda uning bir chekkasiga "Qalami shikasta, nomurod, faqir

⁴ Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. — Toshkent: Fan, 1997.124 b

Behzod umri 70 dan oshganda ushbu ishga qo‘l urdi”, - deb g‘am-anduh bilan imzo chekan edi. Shunga qaramasdan, Behzod Eronda kechirgan g‘am-anduh, g‘urbat-azoblari oldida chekinmadi. Nafosat va go‘zallik olamiga, tabiat, jamiyat va insonga bo‘lgan kuchli muhabbati uni mudom ijod sari etakladi.

Kamoliddin Behzodning "Husayn Boyqaro" va "SHayboniyxon" Sur`atlari musavvir ijodida muhim o‘rin tutadi. Behzod tasvirida Hirotda Sultgon Husayn Boyqaro shohlarga xos qiyofada, salobat bilan cho‘kkalab o‘tirgan holda tasvirlangan. Uning keng elkali gavdasi, qiyiq ko‘zi, yapaloq yuzi, shohona liboslari shunday haqqoniy va ustalik bilan ishlanganki, gavda tuzilishidagi o‘lchov nisbatlari, kiyim-kechaklari nihoyatda mohirona tasvirlangan. Suratning tagiga "Tasviri Sulton Husayn, Mirzo-Behzod", undan ham quyiroqsa "Ach-faqir Behzod" degan so‘zlar ham yozilgan.

Behzodning "Sulton Husayn Mirzo saroyida ziyofat" nomli asarida oqshom paytida go‘zal bog‘ ichida uyushtirilgan ziyofat aks ettiriladi.

Asarda: Sulton Husayn Boyqaro o‘z ayonlari davrasida panjaralar bilan o‘ralgan katta supa ustida o‘giribdi. Suratning yuqori o‘ng burchagida xizmatkorlar may quyish bilan ovora. U yerda sharbat solingan xumlar, ko‘zachalar bor. Eshik oldidaga oqro‘molli habash xizmatkorlar obkash bilan xumchalarda sharbat tashimoqdalar.

Boshida savat ko‘tarib olgan yana bir habash xizmatkor meva-chevalarni supa tomon eltmoqda. Uning oldida xum ko‘tarib, supa tomon ketayotgan yana bir xizmatkor tasvirlangan. Sur`atning past va chap tomonida saroy xodimlaridan uchtasi mast holda aks ettirilgan. O‘rtada ikki kishi qadahlariga sharob quymoqda. Xullas, asarda shoxdar turmushga xos bo‘lgan odatiy hodisa tasvirlanganki, musavvir ularni ham kompozitsion ham rang, ham mazmun, ham badiiylik jihatidan mohirona aks ettira olgan.

Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan yana biri "Samarqand-dagi masjidida" ("Masjid qurilishi") deb nomlanadi. Bu asar Nizomiyning "Xamsa" nomli asariga ishlangan bo‘lib, hozirda Londondagi milliy kutubxonada saqlanadi. Unda yirik masjid qurilishi aks etgan. Bu asarda quruvchilar uch guruhga bo‘lib

tasvirlanadi. Birinchisi - eng yuqorida aks etgan g'isht teruvchilar, ikkinchisi - o'rtadagi yordamchilar (g'isht va loy yetkazib beruvchilar), uchinchisi - tayyorlovchilardir). Sur'atning yuqori o'rta qismidagi yo'l-yo'l sallati, tesha va g'isht uyayotgan kishi usta tasviri bo'lsa kerak.

Sur'atdagi qurilish shunday bir muhim binoki, uni quruvchilar zo'r shijoat va ko'garinkilik bilan qurishmoqda. Musavvir buni bildirish uchun ularning hammasini harakatda tasvirlagan, bironta ham dam olayotgan yoki tomoshabin bo'lib turgan, bajarilayotgan ishga befarq odam yo'q. Ularni kuzatayotgan nazoratchi ham yo'q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bino qurilishdagi kishilar qullar emas, balki o'z xohishi bilan ishlayotgan kishilardir.

Sur'at bizga xalqimiz tarixi, uning turmush tarzi, mehnati, kiyimchari, mehnat qurollari (tesha, cho'kich, narvon, bel, tog'ora, arqon va hokazolar), qurilish ashyolari, binolar tuzilishi haqida ayrim ma'lumotlarni beradi. Asar orqali musavvir ajdodcharimizniig mehnat munosabati islom yo'lidagi say-harakatlarini haqqoniy aks ettiradi. Behzod salkam bir asr hayot kechirdi. Uning hayoti va ijodi SHarq xalqlari, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z ijodi davomida Suliton Muhammad, Qosim Ash, Darvish Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Yusuf Mulla, Rustam Achi, SHayxzoda Xurosoniy, SHoh Muzaffar, Mirsaid Achi, Mahmud Muzahqib, Abdu Attor kabi ko'plab shogirdlar tayyorladi. Kamoliddin Behzod ijodi Hirot, Tabriz, Buxoro, Samarqand, SHeroz, Isfahon, Istambul, Hindiston mo'jaz rangtasvir san'ati maktablari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Kamoliddin Behzod ijodini SHarq va G'arbda birdek yuksak baholaganlar. Buyuk tarixchi Xondamir "Habib-us-suyar" nomli asarida Kamoliddin Behzod haqida shunday deb yozgan edi: "Kamoliddin Behzod ajoyib va g'aroyib Sur'atlarni zohir qiluvchi, hunar nodir-toshlarni bunyod etuvchi, Moniy kabi Sur'at chizuvchi mo'yqalamli, olam musavvirlari asarlarini yo'qqa chiqaruvchi va misli yo'q barmoklari bilan bani odam hunarmandlari tasvirlarini mahv qiluvchidir..." SHayboniyxon, Vosifiy va boshqalar, uni jonsiz narsa — tasvirga jon bag'ishlovchi mo'yqalam soxibi deb ta'riflaganlar.

Behzod ijodi faqatgina XV-XVI asrlarda Movarounnahr madaniy hayoti uchun ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki butun SHarq, hattoki Evropada kitob grafikasining rivojlanshida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Behzodning hayoti va ijodiyotlirida XV-XVI asrlarda O'rta Osiyoda (Movarounnahrda) tasviriy san'atda keskin burilish ro'y berdi. Olim va san'atkorlar bu hodisani san'at tarixida "Uyg'onish" (Renessans) davri deb atadilar.

Behzodning asarlari yuksak qadrlanib, O'zbekistondan tashqari, AKSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Fransiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kugubxonalarida avaylab saqlanmoqda. Toshkentdagi milliy rassomchilik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berilgan. Toshkentda Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan alohida muzey tashkil etilgan.

Kamoliddin Behzod sakson yillik uzoq va mazmundor hayoti davomida Sulton Husayn Miro (1469 – 1505), Muhammad SHayboniyxon (1451 – 1510), SHoh Ismoil Safaviy (1501 – 1524), SHoh Tahmosib Safaviy (1524 – 1576)lar hukmronlik qilgan to'rt saltanatni ko'rdi. Temuriylar sulolasi poytaxti Hirotda va Safaviylar poytaxti Tabrizda yashab, falak gardishining yorqin kunlariyu, azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib mushohada qildi, ijtimoiy borliqdan olgan boy va rang-barang taassurotlarini, ichki kechinmalarini, kayfiyatlarini o'z ijodida zo'r mahorat bilan tasvirladi.

Behzoddan bizga qadar rang-barang janrlarda ko'plab asarlar qolgan. U SHarq tasviriy san'atini janr, mavzu, g'oyaviy yo'nalishi, tuzilishi, ranglar tanosibi, shakl va voqealar mutanosibligi jihatdan yangi taraqqiyot cho'qqi- siga ko'taradi; oddiy hayotiy voqea-hodisalardan tortib, mashriqzaminda keng yoyilgan an'anaviy lavhalar asosida go'zal miniatyuralar chizdi, daho allomalarning shoh asarlarini, tarix kitoblarini bezadi; zamonasidagi buyuk shaxslarning aksini – portretini yaratdi.

Darvoqe, Behzod ijodining dastlabki yillarida ko'proq tarixiy, zamonasining dolzarb mavzularida (masjid qurilishi, tuyalar jangi, Doro sarguzashti, Amir Temur

saroyida qabul marosimi), qahramonlik mavzulari- da asarlar yaratgan bo'lsa, keyinchalik ko'proq an'anaviy, xalq og'zaki ijodi va lirik qahramonlar timsollarini yaratishga kirishadi.

Jumladan, u Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, Amir Hisrav Dehlaviyning «Layli va Majnun» (1492), Farididdin Attorning «Mantiqut tayr» (1494) asarlariga g'oyatda go'zal miniatyuralar chizgan. Bu asarlar doston yoki xikoyatda tasvirlangan voqeaning mo'jaz bir tarzda o'zida mujassalashtirgani, qahramonlarning har biri o'ziga xos bir tarzda ifodalanganligi bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. Masalan, Nizomiyning «Xamsa»siga chizilgan «Layli va Majnun maktabda» nomli surat o'zining har jihatdan mukammalligi bilan diqqatga molik. To'rt tomoni naqshinkor binolar, maysazoru gullar, sermeva daraxt og'ushidagi sinfxonada bir guruh bolalar dars o'qi- moqda, boshqa bir to'dasi esa bolalarga xos sho'xu tanglik bilan o'ynashmoqda, ovqatlanishmoqda, ba'zilar libos- larini kiymoqda. Ammo Layli bilan Majnun mahzun, chor atrofdagi voqeaga beparvo, allaqanday hayolot olamiga g'arq, bir-birlarini zimdan kuzatib o'tiribdi.

Behzod SHarq miniatyura san'atiga hayotiylik, haqqoniylikni – realizmni olib kirgan ijodkordir. Behzod tomonidan yuzlab miniatyuralar ishlangan. U SHarafiddin Ali YAzdiyning «Zafarnoma»siga, shoir Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», shoir Abdullo Hotifiyning «Temurnoma» kabi asarlarini nafis va go'zal miniatyuralari bilan bezagan.

SHuningdek, musavvir muraqqa' (albom)larga ham go'zal va nafis miniatyuralar chizgan. Jumladan, Xuroson hokimi Sulton Husayn Mirzoning majlislari tasvir etilgan muraqqa' (albom). Ushbu muraqqa' Sulton Husayn Mirzoning Hirotdagi kitobxonasi uchun tayyorlangan. Bunday 40 dan ortiq go'zal miniatyura Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan. «Temur tarixi muraqqa'si». Ushbu albom 1467 yilda noma'lum san'atkor tomonidan tuzil- gan bo'lib, nuqra va tillakorlik hunarlari ila o'ta zo'r mahorat bilan juda puxta va go'zal ishlangandir. Unda boshqa nafis tasviriy san'at namunalari bilan bir qatorda Kamoliddin Behzodning bir necha miniatyuralari mavjud.

U tarixiy, zamonaviy mavzularda o'nlab asarlar yaratish bilan birga o'zi bevosita muloqotda bo'lgan, muruvvat ko'rgan maslakdoshlari, zamondoshlarining suratlarini chizib, tasviriy san'atimiz tarixiga portret janrini olib kirdi.

Behzod portret janrining boshlovchisi va mohir ustasi bo'lgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulloh Hotifiy, Sulton Husayn Boyqaro, SHayboniyxon kabi tarixiy shaxslarning portreti Behzod mo'yqalami tufayligina bizgacha etib kelgan.

Bizgacha Husayn Boyqaroning Behzod qalamiga mansub ikkita tasviri saqlanib qolgan.

Jajji tasvirda Sulton Husayn Boyqaro shaklu shamoyili, kelbati shunday aniq hayotiy ifoda topganki, portretni sinchiklab kuzatgan kishiga, Boburning Sulton Husayn Mirzo haqidagi ta'rifi beixtiyor esga tushadi. «SHakl va shamoyili qiyiq ko'zlik, sherandom bo'yliq kishi edi. Belidan quyi ingichka edi, xush rang qizil, yashil abri- shimni kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi, yo qalpoq Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi yamon chirmon chirmab, qarqara o'takasi sanchib, namozga borar edi» («Boburnoma»).

Behzod SHayboniyxon xizmatiga o'tib, 1507 yilning ikkinchi yarmida uning portretini yaratgan. Bu portret-tiynat har jihatdan e'tiborga loyiq. U Behzod ijodining portret yaratishdagi yorqin sahifasi, desak bo'ladi. Tasvir kompozitsiyasi, ranglar uyg'unligi, ular talqini jihatdan chuqur ramziy umumlashmani jamlab olgan. Rasmda podshohning siyrati, ruhiy holati juda ishonarli ifoda qilingan.

Tasvirning tepa qismida Behzodning ikkita dastxati, o'ngda – «Surati SHayboniyxon», so'lda – «Al-obd Behzod», ya'ni «Qul Behzod» degan bitik mavjud.

Kamoliddin Behzod yaratgan uch mashhur o'zbek podshohining tasviriy tiynati O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixida alohida o'rin tutadi.

Kamoliddin Behzod ijodi haqida gapirganda, qohiralik san'atshunos olim doktor Muhammad Mustafo tomonidan nashr etilgan «Behzod miniatyura maktabiga oid mo'jaz tasvirlardan namunalar» degan majmua Behzodning mashhur «Sulton Husayn Mirzo saroyida ziyofat» degan miniatyurasi bilan ochiladi.

Majmuadagi ikkinchi tasvir ham mazmun jihatidan birinchisiga o'xshab ketadiki, unda ham Sulton Husayn Mirzo huzuridagi ziyofatlardan biri tasvirlanadi.

Ushbu majmuadagi Behzod mo'yqalamiga mansub tasvirlarning uchinchisi «Malik Doro va otboqarlar» deb ataladi.

Kamoliddin Behzod ijodi keyingi asrlar Xurosonu Movarounnahr, Hindiston miniatyura san'ati rivojiga sezilarli ta'sir etgan. Qosim CHEhrakusho, Mahmud Muzahhib, Mullo Darvesh, Do'sti Devona, Muhammadmurod Samarqandiy singari musavvirlar Behzod miniatyura maktabidan bevosita saboq olib, uning ilg'or an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan san'atkorlardir.

Behzod va uning shogirdlari san'ati Evropa rassomlari ijodiga ham samarali ta'sir ko'rsatgani rost. 1903 yili Germaniyada san'at ko'rgazmasi ochilgan. Unda Behzod va uning zamondoshlari asarlari namoyish etiladi. Ko'rgazmani Anri Matiss, Sezann kabi fransuz rassomlari ko'rib, hayratga tushishadi. SHarq rassomlari asarlaridagi bir-biriga zid, keskin ranglar, ularni nozik muvozanatda va uyg'unlikda ishlash san'ati ularga katta ta'sir ko'rsatadi.

SHuni alohida qayt qilib aytish mumkinki, Kamoliddin Behzod ijodi ko'p asrlardan beri jahon san'ati ahliga ta'sir ko'rsatib keladi. Respublikamizda uning badiiy merosini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Behzod ijodini tadqiq va targ'ib etishda san'atshunos, faylasuf, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan qator monografiya, risola va ilmiy maqolalar yaratilgan va yaratilmoqda.

Jumladan, N.Norqulovning «Kamoliddin Behzod» (1968), N.Norqulov va N.Nizomitdinovlarning «Minia- tyura tarixidan lavhalar» (1970), O.Usmonovning «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» (1977), K.Oqilovning «Musavvir Kamoliddin Behzod» (1993), N.Oydinovning «Behzodning nurli mo‘jizasi» (1996), B.Mansurovning «SHarq san’atining buyuk namoyandasi» (buyuk musavvir Kamoliddin Behzod) (1977), T.Qo‘zievning «Jahonni zabt etgan musavvir» (Kamoliddin Behzod 545 yoshda) (1997), «Behzod va tamaddun» (2000), O.Usmonov va A.Madrahimovning «Kamoliddin Behzod» (2000) kabi risolalari yaratildi.

SHuningdek, shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan roman, doston va she’rlarda Behzod obrazi qalamga olingan. Masalan, Oybekning «Navoiy», P.Qodirovning «YUlduzli tunlar» romanidagi kabi epizodik timsol bo‘lib emas, Behzod obrazi bir daho sifatida o‘z aksini topadi. SHukur Qurbonning «Behzodning bir kuni» dramatik dostoni, O.Bo‘rievning «Behzod va SHirin» dostoni, Mahmud Hasaniyning «Naqqoshlarning sultoni» she’ri, Temur Ubaydulloning «Musavvirnoma» kabi she’rlari yaratilgan.

Behzod nomini abadiylashtirib, O‘zbekiston Respub- likasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni (1997 yil 23 yanvar)ga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’ sis etildi. Toshkentdagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berildi.

1997 yil 27 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bo‘yicha O‘zbekistonda birinchi marta T.Boltaboev, X.Nazarov, G‘.Kamolov, A.Ilhomov, B.Rahmonberdiev, R.Matchonovlar Behzod nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini olishga muassar bo‘ldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi- ning Qarori (1997 yil 23 dekabr)ga binoan Toshkent va Samarqand shaharlarida va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi. 2000 yil noyabrda bu tadbir dunyoning 190 mamlakatida nishonlandi.

Toshkentda 2000 yil 23 noyabrda Temuriylar tarixi Davlat muzeyida «Kamoliddin Behzod va SHarq miniatyura san'ati» xalqaro anjuman bo'ldi. Ushbu anjumanda Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirok etdilar. YUbley munosabati bilan Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, «Kamoliddin Behzod» hujjatli filmi yaratildi (2000 y). Behzod bog'i barpo etildi. Maxsus muzey ochildi. Albomlar, taqdimlar chiqarildi. Ommaviy axborot vositalarida ko'plab eshittirish, ko'rsatuv va vaqtli matbuotlarda maqolalar berilayotir.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi O'zbekistondan chetga olib ketilgan va xalq boyligi bo'lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo'yicha tashkil etilgan maxsus komissiya Kamoliddin Behzodning dunyo bo'ylab sochilib ketgan merosini, kutubxona hamda muzeylarda saqlanib qolgan asarlarini o'rganib chiqadi. Bevosita Kamoliddin Behzod qalamiga mansub 120 dan ortiq miniatyura asarlari borligi aniqlandi.

Masalan, Oksforddagi (Buyuk Britaniya) Bodlian kutubxonasida Alisher Navoiy «Xamsa»sida Kamoliddin Behzod mo'yqalami bilan ishlangan miniatyuralarning asliyatini mavjudligi aniqlandi. Mazkur kutubxonaning SHarq bo'limida «Xamsa»ga kirgan 4 ta asarning o'zidagina Behzod mo'yqalamiga mansub miniatyuralarning soni 17 tani tashkil etadi. Yana, dunyodagi eng yirik ilmiy xazinalardan biri bo'lgan Londondagi Britaniya kutubxonasida Nizomiyning «Xamsa»si qo'lyozmasiga Behzod tomonidan ishlangan 27 ta miniatyura borligi aniqlandi.

Qohira shahridagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari dahosi bilan yaratilgan miniatyura san'atining noyob durdonalari aniqlandi. Ularning 6 tasi shaxsan Kamoliddin Behzod mo'yqalami bilan chizilgan. 10 ga yaqini uning shogirdlari Qosim Ali, SHayxzoda va Sulton Muhammad ijodining mahsuli ekan.

SHuningdek, Istanbul shahridagi «To‘pkapi» saroyi kutubxonalarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzodning Hisrav Dehlaviy va Nizomiy asarlariga ishlangan 14 dona miniatyura asarlaridan olingan ko‘rgazmalar uchun moslashtirilgan rangli suratlar ham shular jumlasidandir.

Viktoriya va Alʼbert muzeyida saqlanayotgan hamda Sankt-Peterburgdagi Saltikov-SHedrin kutubxonasida saqlanayotgan miniatyuralarning egizak nusxalari yaratilib O‘zbekistonga olib kelindi.

Xulosa qilib aytganda, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan miniatyuralar asarlarining slaydlari, kompakt disk hamda faksimil reproduksiyalari, ko‘rgazmalar uchun moslashtirilgan transparent shaffof nusxalar olib kelinib Kamoliddin Behzod muzeyiga topshirildi.

Uyg‘onish davri san‘ati umuminsoiiy san‘at tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi. Uyg‘onish davri san‘ati, ya‘ni "Renessans" davri sana‘ti deyilganda asosan Evropadagi XIV—XVI asrlarda Qaror topgan san‘at tushuniladi. "Uyg‘onish" ("Renessans") atamasi birilni bor rasmiy tarzda XIV asrlarda Italiyada ishlatila boshlagan. Fan va san‘atda "Musulmol Rensssansi", "SHarq Renessansi" iboralari ham rasmiy tarzda ishlatilib, bu tarixiy jarayonlarning jahon madaniyati rivojiga qo‘shgan buyuk hissasi e‘tirof etilgan⁵.

Jahon madaniyatidaga bu harakatlar falsafa, aniq fanlar, san‘at va adabiyotning barcha yo‘nalshlarida paydo bo‘lgan. SHuni ham qayd qilish lozimki, Uyg‘onish Italiyada rasmiy ravishda shakllangan bo‘lsa-da, lekin uning dastlabki alomatlari IX-XII, XV asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy mamlakatlarida paydo bo‘lgan va fan, madaniyat hamda san‘atning rivojlanganligiga ko‘p omil yaratib, ko‘plab yuksak darajadagi asarlar yaratilishiga imkoniyat bergan.

Uyg‘onish davrida yaratilgan asarlarda insonparvarlik g‘oyalari, qadimgi YUnoniston va Rim madaniyatini davom ettirip, ilm-fan o‘rtasidagi qarashlarga barham bershi, kilgalarning aqliy tafakkurini o‘stirish kabi qarashlar ilgari suriladi.

⁵ Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. — Toshkent: Fan, 1997.140 b

"Uygʻonish" oʻsha davr madaniyatida eng goʻchal, namuna qilib olsa arziydigan qadimli dunyo saltnatiga nisbatan Qiziqish uygʻotgani bilan eʻtiborlidir. Bu davr sanʻati - qadimgi dunyo sanʻatiga taqvos qilish bilan chegaralanmay, balki ular har tomonlama takomillik sari intilishi bilan farqlanadi. Oʻsha davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy tub oʻzgarishlar kishilarda yangi ilgʻor dunyoqarashni yuzaga keltirdi va bu qoʻproq insonparvarlik gʻoyalari bilan bogʻliq edi. Uygʻonish davri madaniyati kishilarning ongi naqadar buyuk kashfiyotlarga qodirligini, bilishga qobiliyatlari nihoyatda katta ekanligini aks ettirar edi.

Uygʻonish davri madaniyatining' barcha yoʻnalishlari orasida eng katta oʻrinni egallagan. Bu davr sanʻati dunyoli, erni, fazoviy kuchlarning tuzilishini bilish haqida tasavvur hosil qilishini oʻz maqsadi deb bilardi.

SHuni alohida qayd qilsh lozimki, oʻsha davr odamlarining sanʻatga munosabatlari nihoyatda yuksak boʻlgan. Bu davrda sanʻat turlari orasida tasviriy sanʻat va meʻmorchilik asosiy oʻrinni egallagan.

Uygʻonish davri sanʻatining ilk vatani Florensiya hisoblanib, uning asoschilari rangtasvirchi Mozachcho, haykaltarosh Dolate, meʻmor Brupelleski edilar.

Mozachcho asarlarida kishilarning qadr qimmatini, jismoniy qudrata va goʻzalligi aks etgirilar edi.

SHuningdek, Mozachcho va uling shogirdlarining Surʻatlarida yorugʻ va soya, hajm, perspektiva, kodorit masalalariga alohida eʻtibor berilgan. Italiya rangtasviri oʻsha davrlarda asosan mahobatli Rangtasvir yoʻnalshida rivojlanib, u asosan devorlarga ishlanardi.

Meʻmor Bruleglesi meʻmorchilikni qadimgi dunyochasiga tushunish lozimligini ilgari surdi. SHu bilan birga u mazkur tushunchalarni oʻrta asrlar davridagi tajribalar bilan uygʻunlashtirdi va boyitdi. Meʻmor oʻz asarlarida bino qismlarining oʻlchamlariga va ular oʻrtasidagi mutanosiblikka aldohida eʻtibor berdi.

Keyilchalik bu san`atkorlarning g`oyalarini Jovanin Bellili, S.Bogtichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Jorjoni, Tilial kabi buyuk ijodkorlar davom ettirdilar.

XVI asrning 30—40 yillarini Uyg`onish davrining inqiroz davri, deb hisoblash mumkin. Bu vaqtlarda rassom va haykaltaroshlar Uyg`onish davri ustalarining uslublaridan sezilarli darajada voz kehdilar va bu Niderlandiya, Fransiya, Germaniya saltana`atlari miqyosida ta`sir ko`rsatdi.

Bu davrda ijod qilgan barcha san`atkorlar, rassom, haykaltarosh va me`morlar, perspektiva, soya, anatomiya, proporiya mutanosiblik borasidagi kashfiyotlari bilan tasviriy san`atning rivojini yangi bosqiyachga olib chiqdilar.

Tasviriy san`atda Uyg`onish davri vakillarini g`oyalari va an`analari ko`shni davlatlar madaniyati va sant`atiga ham samarali ta`sir ko`rsatdi. Bu ta`sir ayniqsa Niderlandiya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Polsha badiiy madaniyatida yaqqol namoyon bo`ldi. Xususan, Uyg`onish davri rassom va haykaltaroshlaridan Van Eyk, Val Der Gus, Paup, Breshel` Kapa, Adyurer, F.Kchug, J.Gujolarning ijodida o`z aksili topdi,

Uyg`onish davri san`ati haqida xulosa qilib aytganda, bu davr san`ati o`zining qahramona mazmuni, mahobatli tili. umumlashgan kuchi bilan to hanz insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Bu davr san`atkorlari o`zlari yaratgan mukammal timsollar, ideal qahramonlar vositasida go`zalligini tarannum qildilar.

Uyg`onish davri san`ati ilg`or yutuqlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki realistik hayot bilan ham chambarchas bog`langan holda rivojlandi. O`rta asr diniy aqidalarga nisbatan Uyg`onish davri san`ati inson aql-idrokini ustun qo`yadi. YA`ni u azob-uqubat va itoatkorlikka qarshi, hastga muhabbat, faollik, kurashchanlik, insonga ishonch g`oyalarini kuylaydi. Keyinchalik ham jahon san`ati tarixida birorta san`atkor Uyg`onish davri rassomlari kashfiyotlaridan ta`sirlanmay qolmadi, ular yutuqlarini chetlab o`ga olganlaricha yo`q. Bugungi ijodkorlar uchun ham uyg`onish davri san`ati va madaniyati beqiyos maktab vazifasini o`gab kelmoqda.

Uygʻonish davrida tasviriy sanʻat sohasida rivojlanishning yangi bir jarayoni vujudga keldi. Bu davrda tasviriy sanʻat sohasida, uning uslubiyotida yangi-yangi kashfiyotlar vujudga yuzaga keldi. Umumtaʻlim maktablari kursiga rasm kiritilmagan boʻlsa ham, ammo umumtaʻlim maktablarida rasmni oʻqitish uslubiyotiga juda koʻp yangiliklar kiritildi. Chunonchi, rassomlar tasviriy sanʻat nazariyasida ancha katta yangiliklar yaratdilar, rasmni oʻqitish uslubiyoti sohasidagi yangiliklarni dadil qoʻlladilar. Rasm chizish muammolari sohasida dadil harakat qilgan Chennino Chennini, Leon Batis Alberto, Leonardo da Vinchi va juda koʻp boshqa rassomlar bu sohaga oʻzlarining katta hissalarini qoʻshdilar. Bu rassomlarning amaliy faoliyatlarining xarakterli xususiyatlari shundan iborat ediki, ular juda koʻp antik rassomlarni asarlarini toʻplab, ularning tasviriy sanʻat sohasidagi ish usullarini har tamonlama oʻrgandilar. Uygʻonish davrining rassomlari tabiat hodisalarini ilmiy nuqtai-nazardan sanʻat va fan bilan bogʻlab tushuntirdilar. Bu davr rassomlarining nazariy va amaliy faoliyatida proportsiya, perspektiva va anatomiya haqidagi bilimlar asos qilib olindi. Uygʻonish davri rassomlari rasm oʻqitishning asosida naturaga qarab rasm chizis turadi, deb hisoblaganlar. Ular oʻzlarining hamma risolalarida bu fikirni qayta-qayta tasdiqlaydilar. Bu sohada Chennino Chennini shunday degan edi: “Sanʻatkorni katta hashamatli sanʻat qasriga olib kiruvchi katta kuch bu narsaning oʻziga qarab rasm chizishdir. Bu nusxa koʻchirishdan afzaldir. Unga qals koʻringan bilan ishonib, xususan qalam tasvirga nisbatan qandaydir hissiyotlari paydo boʻladi”⁶.

Tekislik yuzasida (rasmni) tasvirni yasash, jivopisda(rangtasvir)gi ranglar muammosi va boshqa munosabatlar, narsalar haqidagi fikrlar Leon Batis Albertining “Jivopis haqida traktat” kitobida tahlil etiladi. Alberti risunokka matematika singari masʻuliyatli ilmiy fan sifatida qarar edi, unda ham aniq oʻrganish mumkin, oʻziga xos chuqur qonun-qoidalar borligini taʻkidlaydi. Uning fikricha, oʻqitishning samaradorligi uchun hamma ilmlardan xabardor boʻlishi kerak: “Men xoxlaymanki, jivopis ustasi hamma sohadan, erkin sanʻatlardan

⁶ Rostoletsev N.N. Istoriya metodov obucheniya risovanino M.1982. 104 b

xabardor bo`lishi zarur, lekin eng zarur bo`lgan geometriyani o`rganishlarini istar edim”.

Uyg`onish davrining ulug` rassomi, donishmand Leon Batis Alberti “Jivopis haqida traktat” kitobida – jivopis san`atini o`rganish uchun eng avval geometriyani bilishimiz kerakligini aytadi. U tabiatni o`rganishni, tabiatga taqlid qilishni maslahat beradi. Alberti yoshlarni jivopisni o`rganishlari haqida shunday deydi:“Xat yozishni o`rganuvchiga o`xshab ishlashi kerak ya`ni avval harflarni keyin bo`g`unlarni, so`ngra so`zlarni o`rganib, borishi zarurdir”.

Leonardo da Vinchi va Alberti rasm faniga rangtasvir san`atiga katta ma`suliyatli fan qatorida qarash kerak deb ta`kidlaydilar.

Dyurer jivopis haqidagi kitobida tasviriy san`atni o`rganadigan bolani qanday tanlashni, uni qanday o`qitishni, o`qitishning xilma-xil qoidalarini, yo`llarini ko`rsatib beradi. U o`quvchini tarbiyasi borasida juda ko`p o`ziga xos foydali fikrlarni yozgan edi. Bu kitob bir necha bo`limlardan iborat bo`lib, uning har bir bo`limi bir necha punktlardan tashkil topgandir.(1513)

Uyg`onish davrining rassomlari tasviriy san`at sohasida qilgan ishlari bilan san`atda katta bilimlar boyligi xazinasini boyitdilar, masalan; Dyurerning perspektivada uch ulchamli hajmli predmetlarning tekislikdagi tasviri borasida, tasviriy san`at sirlarini o`zlaridan keyingi shogirdlariga qolaversa butun insoniyatga qoldirdilar. Ulardan keyingi rassomlar uchun bu bilimlar xazinasini katta dasturulamal bo`lib xizmat qilib kelmoqda. Uyg`onish davri rassomlari, umuman olganda, pedagogikaning bir qancha muammolari: o`qitish, tarbiya va boshqa masalalarida juda oz fikr yuritdilar. Shuni aytish kerakki, tasviriy san`atning o`qitish va tarbiya sohasidagi masalalari bo`yicha faqatgina akademik davriga kelib olimlar, rassomlar, donishmandlar chuqurroq shug`illandilar. Uyg`onish davri badiiy san`atini o`rganish ta`limi quyidagicha olib borilar edi: ug`il bolalar 10-12 yoshdanoq ustoz qo`liga berilar edi. Chennino Chennini o`zinig badiiy san`at haqidagi ilmiy asaridagi ma`lumotlarga ko`ra, bolalar qariyb bir yil taxtachaga rasm solishni, bir yil davomida rasm chizishni, so`ngra ustaxonada san`atkor bilan birgalikda ishlashi hamda, bo`yoqlarni uchirish, gipslarni

maydalash (gruntovka) tekislash, oltin suvi yugurtirish, yanchish kabi ishlarning hammasini o`rganishi kerak va bu ishlar rassomlarning ustaxonasida olib borilardi. Rassomlar o`zlariga juda kam shogirdlar olardilar. O`quvchi, rassom bajarayotgan ish bilan hamkorlikda bo`lganda uning chizish ashyolari va chizish texnologiyasi bilan aynan tanishardi, shuning uchun badiiy san`at ta`limi amaliy asosda olib borilardi. Shogird ustoz bilan hamkorlikda ijod qilar ekan ustozning ma`suliyati shogirdga ta`sir qilar va u shakillanardi. Uyg`onish davri ustaxonalari Bottining ilmiy laboratoriyasiga uxshash edi. Ustaxonalarda rasm solishni o`rganish kompozitsiya bilan juda bog`liq edi. Rassom shogirdiga eskizlar chizishni o`rgatar edi. Ammo akademiyalarda rasm solish san`ati o`zi alohida fan sifatida o`rgatilar edi. Rang tasvirdagi dastlabki ish Chennino Chenniniga taaluqlidir. U shunday yozadi: “Rasm solish san`atining asosiy yo`li bu aynan o`ziga qarab (natura) rasm solishdir”. Rasm chizish san`atini o`rganish uchun o`quvchi tinmay mehnat qilishi kerak U aytadiki, rasm solishni oddiy va oson narsalardan boshlash va ko`proq mashq qilish kerak Shundagina qo`l rom o`rgandi, uzluksiz mashq san`atkorlikka etaklaydi. Ammo Chennino Chennini qanchalik mashhur asar yaratgan bo`lsa ham, uning ham ma`lum kamchiliklari bor. Chunki, ko`chirishni va ayniqsa qog`oz kalkaga ko`chirishni tadbiiq etadi. Uning bu kitobi rassomlar uchun qo`llanma, ma`lumotnoma bo`lishi mumkin. Keyingi kitob Florensiyalik Leon Batis Albertining “Rang tasvir haqida uch kitob” asaridir. Bu Uyg`onish davrida yozilgan rasm solishni o`rgatadigan eng yaxshi qo`llanmadir. Alberti rasm solishni jiddiy ilmiy fan deb hisoblaydi va matematika bilan bir qatorda qo`yib, matematikadagi qonun-qoidalarni qanday o`rganishga loyiq bo`lsa, rasm solishda ham xudi shunday deb aytadi. Rasm solish san`ati usullarini Albertidan keyin Leonardo da Vinchi davom ettirdi. Uning rang tasvir haqidagi asari shogirdi tomonidan tartibga solingan bo`lib, uning o`limidan keyin tarqoq holdagi yozuvlari qolgan edi xolos. Ulimidan 10 kun oldin Leonardo da Vinchi o`zining asarlarini dusti va shogirdi bo`lgan Franchesko Malsiga qoldiradi. Bu asarida turli ma`lumotlar, koinotning va bulutlarning paydo bo`lishi, ularning xususiyati, haykaltaroshlik she`riyat havo va ufq chizig`i haqida qimmatli ma`lumotlar bor

edi. Xuddi shu asarda rasm chizish qoidalari haqida nazariy va amaliy ko`rsatmalar, ma'lumotlar mavjud edi. Leonardo da Vinchi rasm solish san'atini o`rganish bo`yicha turli foydali maslahatlar beradi. Rasm solishni organik qismlardan emas, balki butun qismlardan boshlash kerak. Masalan, odam gavdvasini chizmoqchi bo`lsa, gavdani avval to`g`ri joylashtira bilish, keyin uni organik qismlarini chizish kerak. Uyg`onish davri rassomlarining ijodiy tajribalari birinchi navbatda tasviriy san'at sohasidagi ijodiy yutuqlari bo`lsa ikkinchidan perspektiva sohasidagi rassomlarni etishtirdi. Ularning mehnatlari rassomlikda muammo bo`lgan buyumlarning ufq chizig`idagi o`lchoviga binoan organiklab aniqlash kabi muammoni echishga asos yaratdi. Uyg`onish davri rassomlari o`zlarining fikrlari to`g`riligini ilmiy jihatdan asoslab berdilar, buni amaliy jihatdan qo`llab, isbotlab ko`rsatdilar. Uyg`onish davri rassomlari plastik anatomiyaga ham ko`p e`tibor berganlar. Inson tanasining proporsional muvoffaqqiyati har bir rassomni qiziqtirdi. Ular o`zlarining kuzatishlarini asarlarida ko`rsatdilar. Ularning asarlarini ko`zdan kechirganingizda, ular anatomiyani, perspektivani, ko`zgi qonunlari(optika)ni naqadar chuqur bilishlarini tan olamiz. Ular tasviriy san'atni misol qilib oldilar. Bunga erkin misol qilib Mikelanjeloni Skitson kapellasiga chizgan chizgilari misol bo`ladi. U o`z ishlarini juda katta talabchanlik bilan hamda e`tibor berib chizgan. Ilmiy jihatdan asoslangan tasviriy san'at Uyg`onish davriga kelib barq urib gulladi. Bu davr insoniyat madaniyati va san'at uchun eng qimmatbaho davr hisoblanadi. Shu davrda yashab ijod etgan rassomlarning xizmatini qadr-qimmatini shundaki, ular bu san'atning barcha murakkab jumboqlarini echdilar va amaliy jihatdan ularning kerakligini, zarurligini tasdiqlab berdilar. Tasviriy san'atni sevgan har bir kishi Uyg`onish davri asarlariga aql-zakovat, bilim va yuksak mahorat chashmasi deb qaraydi. Rassomlar, san'atshunoslar, yozuvchi va faylasuflar bu asarlardan bahra oladilar va o`zlari uchun ijod sarchashmasi deb hisoblaydilar. Rasm solish metodikasi rassomlarni to`g`ri yo`lga solishga, uni fan jihatdan tan olinishiga ham shular sababchidirlar.

Uygʻonish davrinish betakror sanʼat dargʻalaridan biri, Leonardo da Vinchi 1452-1519 yillarda yashab ijod etdi. u Italiyaning Vinchi shahrida tugʻilgan. U rassomchilik bilan bir qatorda koʻplab boshqa yoʻnalishlarda ham, ijodiy ish olib borgan. Xususan, sayyoralar harakati, okean suvlari, tovushlarning quyosh yorugʻligi taʼsirida tarqalishi, erdagi hayot tarixi va odamzod haqidagi ilmiy tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. U tegirmon, qipchoq xoʻjaligi, mashinalar, tunellar, oʻtinli apparatlar (hamda anchagina kashfiyotlarga asos solgan.

Sanʼat sohasida Leonardo da Vinchi haykaltaroshlik ishlarli, meʼmorlik ham qilardi, musiqa asboblarni chalardi, rasm chizardi. Hammasidan koʻra u rasm ishlashga juda qiziqardi. Dastlab u Florensiyaga kelib, oʻz davrining yaxshi rassomi va haykaltgaroshi boʻlgan Andrea Verokko qoʻlida oʻqiydi.

Leonardoning barcha badiiy-ijodiy faoliyati bevosita ilmiy izlanishlari bilan chambarchas bogʻliq edi. U oʻzining "rangtasvir haqida traktat" nomli kitobida realistik sanʼatning bir dasturini ochib bergan. Bu dastur keyingi davr rassomlari tomonidan eʼtirof etilib, yanada rivojlantirildi.

Leonardoning aksariyat asarlari diniy tarzda boʻlsada, biroq ularning mazmunida yangicha ruh barq urib turardi. Xususan, rassom joʻshqinlik bilan toʻlib-toshgan asarlarida kishilarning erdagi hayotiy lavhalari, ularning murakkab maʼnaviy dunyosi va kechinmalari oʻz ifodasini topadi. Leonardoning koʻpgina asarlarida ona obrazi aks etgan boʻlib, ular orqali rassom ayollarni ulugʻlaydi.

Rassomning eng mashhur asarlaridan biri "Sirli tun" deb nomlanadi Bu asar 1495-1497 yillarda yaratilgan boʻlib, unda Milandagi Santa-Mariya ibodatxonasida roʻy bergan fojiali voqea tasvirlanadi. Maʼlum boʻlishicha, ibodatxonada oʻz ustozlariga umrbot sodiq shogirdlar orasidan sotqin chiqadi. Asarda Iso paygʻambar shu voqeani oʻz rassom shogirdlari bilan birga muhokama etishgan, xom Surʼatda insonlarning his va hayajonlarini nihoyatda keng, shu bilan birga asardagi obraz va detallarni bir-birlari bilan uygʻun holda muvofiqlashtirishga erishgan. Garchi mavzu diniy-ilohiy raiyat asosida boʻlsada, tasvir oʻga hayotiy chiqqan.

Qolaversa, rassom rangtasvirni me'morchilik bilan boshlangan holda aks ettirib, rasm mazmuniyai yangichasiga hal qiladi. Bu esa tomoshabinda unutilmas taassurot qoldiradi.

Rassomni mashhur qilgan asarlaridan yanga biri "Mona Liza. Jokonda" deb aataladigan asardir⁷.

Asar 1503-1505 yillarda yaratilgan bo'lib. hozirda u Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Bu Sur`atda savdogar Jokondaning rafiqasiga ishlangan. Mazkur portret yaratilganligiga 500 yildan oshgan bo'lsada. unga bo'lgan qiziqish hamon so'ngani yo'q, aksincha, XX asrga kelib, asar yanada katta shov-shuvlarni keltirib chiqardi. Natijada millionlab tomoshabinlar Amerika, YApoyaiya, Rosoiyada tashkil etilgai ko'chma ko'rgazmalarda asarni bir soniyagina ko'rish uchu kecha-kunuz navbat kutib turishlarga to'g'ri keldi. Ayrim soxta shuhratga intiluvchi odamlar Sur`atga qarata to'pponchalardan o'q uzishga harakat ham qilgal edilar. SHuning uchun asarning ustki qismini o'q o'tmaydigan zirhli oyna bilan to'sishga to'g'ri keldi. Birgina "Mona Liza" asari haqida necha yilddan ortiqroq asarlar yaratilganligi ham ularning nechog'lik mashhurligidan dalolat beradi.

Xo'sh XX asr kishilarini ushbu asardagi nima hayratga solardi Nazarimida, yosh ayol yuzidagi his-tuyg'ularning o'zgaruvchanligidir. Zero, unda ba'zan sovuq kinoya, noz-karashma, goh ma'yuslik, gohh samimiylik, g'oh jiddiylik nigohli, gohida ishonarli darajadagi aniqlikli, goh qandaydar yashirin ma'noli ko'rish mumkin.

Bunday bir-biriga zid ruhiy holatlar har qanday tomoshabinni o'ylashga majbur etadi.

"Mona Liza" yoki "Jokonda" Sur`atini ko'rganda, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Sur`at tasviriy san'atning qaysi janriga mansub?
- Sur`atdagi ayol necha yoshlarda bo'lishi mumkin?

⁷ Rostoletsev N.N. Istoriya metodov obucheniya risovanino M.1982. 111 b

— Sur`atdagi manzara qaysi faslga xos?

— Ayolning` ruhiy holati qanday?

— Sur`atda rang, yorug` va soya, isrsisktina qoidalariga qanchalik rioya qilshgan?

— Rassom Sur`atdagi asl timsolni tasvirlash orqali tomoshabinga nima demoqchi?

Asar shu jihati bilan mutaxassis va tomoshabinlarda qiziqish uyg`otadiki, rassom o`zining butun umri davomida ishlagan barcha asarlarni sotgan. Lekin "Mona Liza" asarini doimo o`zi bilan olib yurgan va har qancha katta miqdordagi pullarni taklif etishsada, uni sotmagan.

Leonardo da Vinchi o`z hayotida ko`plab yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdi. Ulardan "Madonna Betga", "Madonna Litga", "Qoyadagi Madonna", "Gul o`shlagan Madonna", "Oqsichqon ushlagan ayol", "Ayol portreti" va boshqalarni alohida olish mumkin.

Daho Leonardo da Vinchining asarlari 5 asrki kishilarni o`ziga, go`challikni ulug`lashga va qadrlashga o`rgatib kelmoqda. Uningbetakror ijodi barcha davr rassomlari uchun namuna va tajreba maktabi bo`lib qolaveradi.

Uyg`onish davri san`ati madaniyatining yana bir dahosi buyuk haykaltarosh va shoir Mikelanjelo Buonarroto 1475 yichda Italiyaning Kalriche shahrida tug`ilgan. 1564 yilda Rimda vafot etgan.

U dastlabki maxsus ta`limni ustozlari Uyg`onish davri san`atining buyuk vakillari hisoblangan rassom M.Girlandayo va haykaltarosh Bertol`do di Jovashtidan olgan. U asosan mahobatli haykaltaroshliqda ijod qilgan, Mikeyulanjeloning asarlarida inson go`zalliga, o`ning qudrati, hayotdagi dramatik holatlar o`z betakror ifodasini topdi. Uning ilk asarlari qatoriga "Zinapoya oldida turgan Madonna", "Kentavrlar", "Vak haykali", "Madonna", "Muqaddas ona" kabilarni kiritish mumkin.

Mikelanjeloning nisbatan keyinroq yaratilgan "David", "Bosh ko`gargan qul", "O`layotgan qul" kabi asarlari ozod inson va hurriyat, qullik va zulmga qarshi kurash ramzi bo`lib qoldi.

Haykaltaroshlik "O'layotgan qul", "Bola ko'targan qul" nomli ishlari Rim Papasi Yuliy II qabri uchun tayyorlangan edi. Ushbu asarlarda kux xam zaiflik alomatlari ham o'z ifodasini topgan. Mikelanjelo asarlari orasida Floreldinaga ibodat uchun ishlangan me'moril haykaltarolik ansambli Rilmdagi avliyo Pyotr ibodatxonasi me'moriy ansambili, "P'eta Roddalichi" kabi haykallari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Mikelanjeloning "David" nomli mashhur asari nafaqat Florensiyada, balki butun dunyoda to hanuz ozodlik va mustaqillik timsoli sifatida qadrlanadi

Mazkur haykalda David dushman bilan kurashish uchun tayyor turgan shavkatli jangchi qiyofasida tasvirlangan. O'spirin yigit jangovor holda turibdi. Qahramon timsolida qancha jismoniy quvvat va ichki ko'garinkilik ifodalanadi.

U oyoqda mustahkam turibdi, qoshlari chimirilgan, lablari qisilgan, qalin sochlari esa peshonasida turibdi. Bir qo'lda tosh, ikkinchi qo'lida palahmon. Biron daqiqa o'gmasdan u toshni palahmonga solib, aylantirib dushman tomon uloqtiradigan shashti bor. Davidning kuchini ko'rsatish uchun Mikelanjelo haykalni 5,5 metr balandlikka ilgandi. Uning uzun bo'yli, qo'li, ko'kragi ostidagi muskullarini bo'rttirib ko'rsatadi. Qaxramon tasvirida shafqat-kuch quavvatga ishonch sezilib turibdi.

"David" mavzusi o'z mustaqilligi uchun izchil kurash olib borayotgan kichik bir shahar xalqiga qahramonona ruhi bilan juda yaqin bo'lib, xalqqa manzur bo'ldi. "David" haykali haykaltaroshni nihoyatda mashhur qilib yubordi va Rim Papasi Yuliy II Rim shahriga ishga taklif qiladi. Papaning buyrug'iga ko'ra haykaltarosh juda ko'p haykallardan tashkil topgan yirik inshoot qurilshida ishtirok etishi lozim edi. Mikelanjelo bu buyurtma ustidagi ko'p yillar ishlagan bo'lsa-da, uni oxirigacha etkaza olmadi. U o'zaro mazmunan bog'liq bo'lmagan bir nechta asarlarni yarata oldi xolos. "Bosh ko'gargan qul". "O'layotgan qul" kabi haykallar ham mazkur turkum uchun ishlangan edi

Birinchi haykalda ishlayotgan va harakat qilayotgan kuchli, yosh va navqiron yigit tasvirlangan. Asarda yigitning mag'rur yuzida va tanasidagi harakatlarida qullikka isyon va g'alabaga bo'lgan ishonch, bukilmay iroda

ifodalangan. Muskullardagi yirik, boʻrtiqlar ozodlikka boʻlgan qatʼiy harakatni yanada kuchaytirib, boʻrttirib ifodalagan.

Ikkinchi haykalda kurashda halok boʻlayotgan qahramon siymosi ifodalangan. Qahramon katta kuch-qudratga, quvvatga ega boʻlishga qara-masdan, noilojlikdan halok boʻlmoqda. Lekin u dushman bilan beshafqat kurashdi. SHuning uchun ham uning oʻlimi yorqin va osoyishta, xotirjam. Uning yuzlarida azoblanish, dard belgilari sezilmaydi. Oʻsmirni goʻzal tanasida oʻlim talvasasi roʻy beradigan xunuk, koʻrimsizlik belgilari yoʻq. Bu haykal orqali Mikelanjelo tanani hayotdan oʻlimga oʻtish lahzalarini mohirlik bilai koʻrsata olgan. Biroq, hali tanada harorat bor. Ogʻir nafas olayotgan yigit koʻkragi koʻtarilib turibdi, oyoqlar sovib, muskullar qotib, silliq koʻrinishga kirmoqda.

Mikelanjeloning ijodi insonparvarlik, inson qudrati uning goʻzalligini tarannum etishda, nafaqat Uygʻonish davri, balki undan keyingi butun dunyodagi barcha ijodkorlar ham namupa boʻlib qolaveradi.

Uygʻonish davrining buyuk va betakror rassomlaridan yana biri Titsian Vechelliodir. U 1476-1576 yillarda Venetsiada yashab ijod etdi. Titsianni zamondoshlari "Rangtasvirchilar qiroli" va "Qirolichalar rangtasvirchisi" deb atashardi⁸.

Rassom tasviriy sanʼatning koʻpgina janrlari - afsonaviy, portret, manzara, maishiy, shuningdek, daniy mavzularda biri-biridan ajoyib va oʻlmas asarlar yaratgan.

Uning dastlabki asarlari qatoriga "Medichi", "Papa Pavel III Imperator Karl V ning jiyanlari bilan birga", "SHaharlik Venera", "Karl V" kabi portretlarini kiritish mumkin. Qarash-qarshlikka va munozaralarga boy XV asrning ikkinchi yarmida Titsian benazir asarlar yaratdi. "Iso alayhissalomga aza tutish", "Iblis Sebastyan" shular jumlasidandir.

Rassom ijodida portret janri aloxida va asosiy oʻrinni egallayda. Ayniqsa, uning asotir timsolini tasvirlovchi asarlari oʻzining yuksakligi rosmi boyligi

⁸ Rostoletsev N.N. Istoriya metodov obucheniya risovanino M.1982. 115 b

bilan ajralib turadi. "Lavina portreti", "Danaya" "Ko'zgu oldidagi Venera", "Urbanoli Venera" nomli asarlarshga rassomning tetik qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Titsian "Iso alayhissalomga aza tutish", "Evronaning o'g'irlanishi"
"Tobugga qo'yish", "Tavba qilayotn Mariya Magdalina", "Avliyo Sebastena
Sur`atlari Uyg'onish davri san'atining gultojlaridan bo'lib qoldi (101-rasm)

Titsian asarlarining yana bir muhim jihati shundaki, u o'z ifodalangan timsollar, obrazlar vositasida butun boshli davr kishisi qiyofasini tasvirlamoqda. Masalan, rassom "Kutqots kiygan yigit" nomli asarida Uyg'onish davri kishilarining tashqi qiyofasini yarata olgan. Bu asarda o'ziga ishongan jasur venetsiyalik yigit timsoli o'ziga xos tarzda aks etgan.

Yigitchaning jiddiy qarashida oddiy va erkin holatida navqiron yigitga xos kuch-quvvat, jo'shqinlik barq urib turibdi. Surat ritmik tasvirlarning boyligi, shakl va ranglarning harakatda hamda hajmli ifodalanganligi bilan boshqa rassomlarning ijodidan keskin farq qiladi.

Rafael Santi - Uyg'onish davrining buyuk rangtasvirchi rassomi. U 1483 yilda Italiyaning Urbino shahrida tavallud topgan. 1520 yilda vafot etgan.

Rassom va me'mor Rafael Santi dastlabki badiiy ta'limni o'sha davrning mashhur rassomi Perujinodan olgan. Rafael Uyg'onish davrining eng sermahsul ijodkorlaridan biri edi. Bu dahyo rassom ijodining bosh-g'oyasi — insonparvarlik, inson go'zalligini tarannum etish, odamzodaning mukammalligini madh etishdan iboratdir. Rassomning dastlabki asarlari qatoriga "Ritsar uyqusi", "Madonna Konestabels", "Mariyaning nikohi" kabilarni kiritish mumkin. Keyinchalik u dramatik mazmundagi "Tobutga qo'yish", "Madonna Graiduka", "Bogyoon Madonna" "Stapda della Senyanura" kabi asarlar yaratib, katta shuhrat qozondi.

Portret janrida yaralgan asarlari Rafael ijodining asosiy qismini egallaydi. Rassomning "Papa Yuriy II", "Kardanal portretga", "B.Kastilone", "Leo X kardinallar bilan" asarlari shular jumlasidandir. Ijodkor "Madonna Achba", "Madonna di Folipo", "Madonna Granduka" kabi portretlari orqali ayol go'zalligi va onalik tuyg'usini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi.

Rassomning eng salmoqli ishlari Vatikan saroyidagi mahobatli rangtasvir asarlaridir. Uning mazkur saroy uchun ishlangan asarlari asosan diniy, falsafiy, shuningdek lirik yoʻnalishda boʻlib, ular ijodkorga beqiyos shuhrat keltirdi. Bu mavzudagi Surʼatlardan ayniqsa, "Munozara", "Afina maktabi", "Parnas", "Aql, mezon va kuch" deb nomlangan ishlari alohida eʼtirofga loyiqdir. Rafaelning bu turkumdagi asarlarida ozodlik va hurriyat, insoniy baxt-saodat, jismoniy barkamollik gʻoyalari mujassamlashgan.

Rassomning diqqatga sazovor, eng yuksak badiiy saviyada ishlangan va eng mashhur ishlaridan biri "Sikstin Madonnasi"dir. Ushbu asar 1515-1519 yillar mobaynida yaratilgan boʻlib, u Injildagi rivoyatlar asosida ishlangandir. Bu asar hozirda Germaniyaning Drezden galersyasida saqlanadi. Bu asarda rassom ayol, ona timsolida eng va oliy yorqin insonparvarlik gʻoyalarini ilgari suradi

Surʼatni kuzatarkanmiz koʻz oʻngimizda duxoba parda ochilib, bola koʻgargan holda osmondan pastga tushib kelayotgan Bibi Maryam qiyofasi namoyoi boʻladi. Rassom asarda ilohiy ideal siymosini oddiy insonlar umr guzaronlik qilayotgan zamindan yuqorida, samodagi bulular koʻshkida tasvirlaydi. Madonna Bibi Maryamni avliyo Sikstin va muqaddas Varvaralar kutib olmoqdalar. Madonna Bibi Maryam insoniyatni saqlab qolish maqsadida oʻz oʻgʻlini qurbon qilib, uni ikki farishta orqali bashariyatga tortiq qilmoqda.

Asardagi mazkur mazmun Madonna timsolida oʻz ifodasini topgan. Bu gʻoyalarni tomoshabinga singdirish uchun rassom jonivor va fidoyi Ona tasvirini kompozitsyaning markazida ulugʻvor, tuzal va mukammal tarzda ifodalaydi. Asardagi barcha obrazlar oʻzaro bir-biriri bilan uzun holda tasvirlangan boʻlib, tomoshabin birinchi nigohdayoq sezadi.

Xususan, asarni kuzatgan tomoshabinning ilk nigoxida Ona timsoli orqali Sikstinga, keyin uning qoʻli va nigohi hamda harakatlari orqali yana Bibi Marʼyamga, soʻng uning kiyimi chekka qirralariga va nihoyat Varvara nigohi tufayli pastdagi ikki farishtaga yoʻnaltiriladi. Toʻldiruvchi siymolarning nigohi orqali tomoshabin yana Ona siymosiga rasm soliish bilan tugallanadi.

Rafael Sikstin Madonnasi timsolida nihoyatda murakkab insoniy his-tuyg'ularni ifodalashda. Bibi Maryamning yuzida g'amginlik tulib toshgan bo'lsa-da, biroq u ruhan o'ktam va xotirjam ko'rinadi. Uning g'amgin chehrasida, katta ochilgan ko'zlarida o'g'lining boshiga tushajak azoblarni his etganligi seziladi. Ayni paytda uning chehrasidai katta qurbonlar qilishga qodir shaxsning siyrati namoyon bo'ladi. Asarda Onaizorning cheksiz ichki hissiyotlari bilan uning jiddiy, biroq yorqin go'zalligi hamohang tarzda jiplashib ketgan.

Rafael Uyg'onish davrining daholaridan biri sifatida san'at tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi keyingi asrlarda ham necha-necha avlod san'atkorlari uchun ijodiy mayoq vazifasini o'tamoqda.

Mashhur rassomi P.P.Rubens 1577 yilda Germaniyaning Zigen shahrida tug'ilib, 1640 yilda Antverpenda vafot etgan. Rubens dastlabki tasviriy saboqlarni dengiznavislik oqimiga mansub bir qator rassomlardan olgan.

Rubens 1600-1608 yillarda Italiyaga kelib, Mikelanjelo, Rafael, Karovajo asarlarini sinchiklchab o'rgangan. Bu daho san'atkorlarning asaridan nusxalar ko'chirgan. Keyinchalik u Flandriyaga qaytib, hukmdorlar saroyida bot rassom lavozimida ishlagan.

Bu vaqtda yaratgan asarlaridan uning Evropa Uyg'onish davri va milliy realistik an'analar ta'sirida bo'lganligi yaqqol seziladi. Rubensning "Xochdan olish", "Xochni o'rnatish", (1600-1614 y.)-"Dahshatli sud" (1600-1616 y.), "Tosh tashuvchilar" (1620 y.). "To'ng'iz ovi" (1618-1620 y.) "Er va suv itgifoqi" kabi dastlabki asarlaridayoq o'sha davr san'atida qabul qilingan doimiy qoidalardan chetga chiqib, yangi badiiy shakllarni yaratishga intikish sezadi (104-rasm).

Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlarida inson va tabiat go'zalligini aks ettirshni asosiy o'rinni egallaydi. Bunday ishlar qatoriga afsonaviy janrdagi "Perssy va Andromeda" (1620-1621 y.), tarixiy-allegorik yo'nalishdagi "Mariya Medichinning tarixi" (1622-1625 y.). dehqonlar hayotidan olib ishlangan

"O'roqchilarni laladan qaytishi" (1635-1640 y.), "Levkinni qizlarining o'g'rlanishi" (1615-1617.) xos serjilo dabdabalilik, hashamatdorlik seziladi.⁹

Rassomningtabiachanligini ifodalovchi "Kamalakchi manzara". "Kuyosh botishidagi manzara" kabi asarlarida uning yuqori estetik qarashlari aks etgan. Rubensning ko'pgina asarlari jahoning yirik muzeylaridan bo'lmish Luvr, Madriv, Myunxen, Drechden Sur`atlar galereyasida avaylab saqlanmoqda. Rassom ijodi jahon tasviriy san'atida asosiy o'rinlardan birini egallab, uning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Mashhur Gollandiyalik rassom X.R.Rembrandt 1606 yilda Gollandiyaning Leyden shahrida tegirmonchi oilasida tavallud topib, 1669 yilda Amsterdamda vafot etgan.

U rassomlik borasidagi dastlabki ma'lumotni 1620—1623 yillarda Leyden universitetida, shuningdek, o'z davrining mohir mahalliy rassomlaridan olgan. Keyinchalik u 1623 yilda Amsterdamdaga rassomlik bilim yurtiga kirib, o'z ma'lumotini oshirgan.

Rassom rangtasvirni potret, maishiy, natyurmort, afsonaviy, tarixiy janrlarida sermahsul ijod qilgan.

U o'z asarlarida oddiy mehnatkash xalqning hayot lavhalari, tabiat manzaralarini, o'zida zamondosh kishilarni ichki kechinmalarini juda ta'sirchan va teran ifodalashda ranglardan moxirona foydalangan.

Rembrandt nihoyatda sermahsul rassom bo'lganligi sababli uning barcha asarlarini tilga olib o'tishning imkoni yo'q. SHu sababli biz uning eng mashhur Sur`atlaridan sanalgan "Doktor Tyulpning anatomiya darsi" (1632 y.), "Saskiya bilan avtoportret", "Danaya" (1636 y.), "Tungi soqchilar" (1642 y.) kabi ishlari bilan kifoyalanamiz.

Rembrandt o'z ijodining so'nggi yillarida yaratgan "Virsviya" (1654 y.), "Muqaddas oila", (1668-1669 y.), "Yahudiy kelini" (1668 y.), kabi asarlarida rassom hayotidagi ruhiy qarama-qarshilik, tushkunlik kayfiyatlari seziladi.

⁹ Rostoletsev N.N. Istoriya metodov obucheniya risovanino M.1982. 104 b


Rassomning XVII asr o'rtalarida yaratgan asarlari demokratiya an'analaridan uzoqlashgan Gollandiya burjuaziyasi tabiatiga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan. Musavvirning asarlari ko'proq vatanparvarlik milliy ozodlik harakati g'oyalari ilgari surilgan.

Rembrandt haqida to'xtalganda, uning ijodini bizning mamlakatimiz bilan aloqadorlik joyi ham borligini alohida qayd qilish lozim. Xususan, uning Sohibqiron Amir Temur taxtda o'tirgan ko'rinishni tasvirlovchi rasmi ham bor. Ayrim san'at-shunoslar uni rassom SHarq mavzusidagi bironta kompozitsiyasi uchun tayyorlagan bo'lsa kerak, deb taxmin qilishadi.


Rassomning bebaho ijodi realistik rangtasvirning rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Rembrandt xayotining oxirgi yillarida nihoyatda og'ir fojialarga duch keladi, o'g'lini bevaqt vafot etishi ta'sirida uning ijodiy ishlari to'xtab qoladi, buni natijasida qarzlari ko'payib, hovli-joyini qarzi evaziga to'laydi, bularning barchasi daho san'atkorning gullagai ijodiy kamolot pallasida vafot etishga sabab bo'ladi.

Rembrandtning bebaho asarlari jahoning ko'plab mamlakatlari Muzeylarida avaylab saqlanadi. Xususan, ularning go'chal namunalarini Drechden Sur'atlar galereyasida, Ermitajda, Amsterdam davlat muzeyda, Luvrda, Moskvadagi Pushkin nomidaga tasviriy san'at asarlari muzeyida ko'rish mumkin.



Portret janridan lavxalar




Portret janridan lavxalar. Inson kallasini chizish usullari.






Portret



Portret janridan lavxalar



Portret janrida chizish metodikasi

2.3. Tasviriy san'at darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablari.

Dars jarayoni — ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay, eng samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarida bo'la-yotgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'rifiy o'zgarishlar barcha pred-metlar qatori tasviriy san'at darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi, zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Bu talablarning aso-siylari quyidagilardan iborat:

1. Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maq-sadlarni to'g'ri qo'ya bilish va ularni amalga oshirish.
2. Darsda ta'limning faol usul va uslublarni qo'llay bilish.
3. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jahon peda-gogikasi, ruhshunosligi borasida yaratilgan yangiliklarni sintetik tai-zda ishlatish va hokazolar.

«Zamonaviy talablar* tushunchasi san'at va fan sohasidagi yutuqlar, jamiyatning rivojlanish darajasini hisobga olib, darsga qo'yilgan talablar bo'lib, tasviriy san'at o'qitishning maqsad va vazifalariga mos holda keying! o'quv-kasbiy hamda pedagogik faoliyatiga tayyorlashda xizmat qilishni bildiradi.

Tasviriy san'at darslarida milliy meros, qadriyat, madaniyat, san'at va buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, hikmatga to'la hadislarimiz, asotirlar, rivoyatlardan unumli foydalanib borish maqsadga muvo-fiqdir. Ma'lumki, keying! yillarda tajribali metodist olimlar, ruh-shunoslar va amaliyotchi-o'qituvchilarmng o'quv jarayonini tahlil qilish sohasida o'tkazilgan tadqiqotlari dars samaradorligini oshi-rishi, pedagogik va didaktik shart-sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Eng muhim shart-sharoitlar quyidagilar:

- yangi avlod darsliklari, didaktik va metodik o'quv ko'r-gazmali qurollar hamda o'qitishning innovatsion, pedagogik va axborot texnologiya vositalari bo'lishi; ...

— o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlar bo'lishi;

— guruhda yaxshi psixologik-muhit bo'lishi.

Umumiy pedagogik shart - sharoitlarga amal qilib, mavzuning didaktik maqsadi to'g'ri tashkil qilinsa, darsning sifati yuqori va samarali bo'lishi mumkin. Shunirig uchun ham darsning didaktik metodik maqsadini aniqlashga katta e'tibor qaratilgan, bu esa didaktik tamoyillardan kelib chiqadi.

Darsni tashkil qilishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Darsning maqsadini belgilash. O'quv-tarbiya jarayonining funksiyalari bo'lgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalar aks ettirilishi.

Umumiy didaktik maqsadni (yangi tasvifiy san'at atamaları, tushunchalarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, samarali ish metodlarni shakllantirish) aniqlash.

2. O'quv materialining mazmunini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, dars materialining hajmi va murakkabligini belgilash. O'quv materialining mazmunini tevarak-atrof bilan bog'lash, o'tilgan materiallarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash; o'quvchilarni mustaqil ijodiy ishlarining tizimini aniqlash, darsning jihozi hamda asosiy adabiyotlar, manbalarni belgilash.

3. Darsning didaktik va tarbiyaviy vazifalarini aniqlash. Amaliy ijodiy ishlarining kompozitsiya jihatdan murakkabligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fazilatlarini hisobga olgan holda mos bo'lishi kerak.

4. O'quv materialining mazmuni va didaktik maqsadlariga mos keladigan ta'lim metodi va usullarini tanlash.

5. Didaktik vazifalar darsning o'zida bajarilishi. O'quv materialining mazmunini rejalashtirish vaqtida dastur doirasidan chiqmaslik va hokazo.

Umumiy o'rta maktabning tasviriy san'at dars mavzularini taqvimiy tasvirli rejalashtirish

Dars — ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishning eng asosiy shaklidir. Dars ijod san'ati, yaratish san'atidir.

Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish - eng murakkab ishlardan hisoblanib — u mavzularni tasvirli rejalashtirish dasturi deb nomlanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chu-qur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshi-riqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini k'o'rsa-tadi.

Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va malakalari, o'quv chorak va semestrlari va haftalarga taqsimlanishi kerak. Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning bir-muncha xususiy savollariga (muammolariga) ; taalluqli emas. Ma'lumki, dars jarayoni — ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning javobini yechilishi — o'quv jarayo-nini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq.

Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imko-niyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa, dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo'limida naturmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo'lmasligi mumkin.

O'quv dasturlari aynan asliga muvofiq to'g'ridan - to'g'ri ba-jarilishini talab qilmayapti. U faqat qanday rassomlar bilan o'quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musawirlarni ijodiy tomon-larini yaqqolliroq ko'rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o'qituvchi fondida ko'rsatilgan u yoki bu musawirni asar repro-duksiyasi bo'lmasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almash-tirilishi mumkin. Naturmortga kerakli bo'lgan buyumlar ham yo'q bo'lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasini hisobga olgan holda shakli shunga o'xshash buyumlar bilan o'zgartirish mumkin.

Maktab yoki kasb-hunar kollejda shaxsiy ish rejasini tuzishda o'qituvchi har bir sinf yoki kurslar uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bunday yillik ish rejasini yaxshisi tasvirli bajarish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirlaydi. Maktabda chorakni so'nggi darslarini suhbat yoki narsani o'ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisoblab bo'lmaydi. Agarda rejalashtirishda chorakni so'nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli

rasm ishlash belgilangan bo'lsa, bolalarga shu ishni ta'til vaqtida bayram bilan bog'lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo'lamiz.

Mavzularni - tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchi-liklarni yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o'quv qo'yilmalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni me-todik yo'nalishlarini aks ettirish yengil bo'ladi.

Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o'quv materiallari chorak yoki semestr bo'yicha va alohida darslar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o'quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko'rgazmali tasvirlanadi.

Tasvirli — mavzuli reja dasturi o'ziga xos jadval sifatida o'quv chorakning soniga qarab to'rtta qatordan iborat, ularni har bir chorakdagi o'tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi. Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldirilad

UMUMIY XULOSA

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar. Shuning uchun ham tasviriy san'at o'quv predmetining bosh maqsadi o'quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Kompozitsiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar perspektiva, rangshunoslik yuzasidan olgan bilimlaridan keng foydalanishlari kerak. O'qituvchi vazifani tushuntirishda o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi darkor. Masalan, adabiy asarning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ishlashda bolalar e'tiborini hikoya, masal yoki ertaklarning g'oyaviy tomoniga qaratadi. Natijada o'quvchilar asardagi asosiy narsa nima, undagi qahramonlar kimlar, ularning xarakteri va sifatlari qandayligini tushuna boshlaydilar. Mavzuni tushuntirgach, o'qituvchi asarning mazmuni haqida suhbat o'tkazib, vazifani aniqlashtiradi. Birgina mavzuni turli xil mazmunda har birini o'ziga xos ko'rinishda tasvirlash mumkin. Masalan, «Bizning qurilishlarimiz» mavzusiga o'quvchilar shaxsiy kuzatishlari orqali yig'ilgan materiallar asosida turli konstruksiyalardagi zamonaviy uylarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi mavzuni qanchalik keng va to'liq tushuntirsa, bolalar chizgan rasmlar shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi.

Kompozitsiyaning umumiy sxemasi haqida o'ylayotgan bola nima qayerda tasvirlanishi, masalan, qaysi tasvir qanday yuzada, qog'oz sathining qayerida joylashishini, qanday ranglar bilan ishlanishini tasavvur qilishi, rasmda asosiy narsa yoki obraz kim yoki nima bo'lishini bilishi kerak.

Kompozitsiyani tugatish jarayoni muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ba'zi narsalar rasmini to'g'rilash va aniqlashtirish orqali ko'pincha o'quvchi rasmning bir butunligini buzadi, natijada kompozitsiyada yorug', soya va yarim soyalarning rasmdagi o'zaro uyg'unligi o'zgaradi. Bunday hollarda o'qituvchining mo'yqalamni qo'lga olib, rasmni tuzatishi to'g'ri bo'lmaydi. O'quvchining xatosini tushuntirib, uning o'ziga rasmdagi xatolarni tuzatishni o'rgatish kerak. Tushuntirishda ko'rsatmali materiallardan, o'quvchilarning namunali rasmlaridan, rassomlar yaratgan suratlardan namunalar ko'rsatish yaxshi natijalar beradi.

Tasviriy san'at har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Eng muhimi, qog'oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari-yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo'llaydilar. Ular o'z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo'lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi va u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go`zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so`zlagan nutqi. - T.: Sharq, 1997. - 63b.
6. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008.
7. S.Abdirasilov. Tasviriy san’at o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlarni bajarish. T., 1996.
8. B.Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. T., G`.G`ulom nomidagi nashriyot, 2004.
9. B.Ziyomhammadov, Sh.Abdullayeva. Ilg`or pedagogik texnoigiya: Nazariya va amaliyot. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tiibiyot nashriyoti, 2001.
10. J.Majidov. Tasviriy san’atdan maktabdan tashqari ishlar. T., 1983.
11. M.N. Nabiyev. Rangshunoslik. T., 1995.
12. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’at o`qitish metodikasi. T., «Fan», 2004.
13. O. Xudoyorova. O`zbekiston maktablarida tasviriy san’at o`qitish tarixidan. T., 1993.
14. N.Oydinov. Rassom-o`qituvchilar tayyorlash muammolari. - Toshkent; O`qituvchi, 1997.
15. B.Oripov. Tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish omillari. –

- Toshkent: O`qituvchi, 1978.
16. R.Hasanov. Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. – Toshkent: O`qituvchi, 1980.
 - 17 R.Hasanov. Uchinchi sinfda tasviriy san`at darslari. O`qituvchilar uchun qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi, 1988.
 - 18 R.Hasanov. Tasviriy san`at. 1-sinf o`quvchilari uchun dasrlik. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.
 - 19 X. Egamov. Bo`yoqlar bilan ishlash. T., 1981.
 - 20 S. Abdirasilov, N. Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir. T., «O`zbekiston», 2006.
 - 21 S.S. Bulatov. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. T., «Mehnat», 1991.
 - 22 S.S. Bulatov. Amaliy san`at qisqacha lug`ati. T., 1992.
 - 23 M.A. Mirzaahmedov. Boshlang`ich naqsh ishlash metodikasi. T., 1976.
 - 24 E.Кондахчин. Методика преподавания рисунка в средней школе. – Москва: Искусство, 1951.
 - 25 В.С.Кузин. Основы обучения изобразительному искусству в школе. – Москва: Просвещение, 1977.
 - 26 B.Z. Azimova. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T., 1989.
 - 27 S. Abdirasilov. Tasviriy san`at metodikasi. T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
 - 28 B. Boymetov. Portret qalamtasviri. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 2001.
 - 29 K. G`ulomov. Ashyolarga badiiy ishlov berish. T.: «Bilim», 2004.

- 30 B. Tojiyev. Qalamtasvir asoslarini o`rganish. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 1994.
- 31 N. Ten. Gips modellarining rasmi. T.: «O`qituvchi», 1994.
- 32 R.Hasanov. Tasviriy san`atni o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2006.
- 33 S. Abdirasilov. Tasviriy san`at atamalari. T., 2003.